



### Valyuta kursi:

AQSH dollari 11269.82.  
1 YEVRO 12205.22.  
1 Rossiya rubli 159.78.  
1 Angliya funt sterlingi 13890.05.  
1 Yaponiya iyenasi 86.43.  
01.02.2023



ISLOHOT

Endi bu  
chinakam saylov,  
TAYINLOV  
EMAS!

JAMIYAT

AXBORIY  
PANDEMIYA  
yoxud fikrlar  
boshqaruvidagi  
dunyo haqida fikr



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



1995-yil 10-iyundan chiqq boshlagan

www.mf.uz / milliytiklanish2022@gmail.uz

tiklanish



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING  
IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

№ 4 (1192) 2023-yil  
1-levral,  
chorshanba



PARLAMENTDAN  
MAHALLIY  
KENGASHLARGACHA:

ISHONCHNI OQLASH

# MAS'ULIYATI

YOKI SAYLOVCHILAR NOROZILIGINING SABABLARI NIMADA?

4-5 s

O'ZBEK VA QIRG'IZ HAMKORLIGI:



## BOY BERILGAN IMKONIYATLAR



QAYTA TIKLANYAPTI

FRAKSIYADA

2

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga  
sentyabrdan boshlab  
BEPUL OVQAT  
BERILADI!

DEPUTAT MINBARI

9

Kimki sudyalari ishiga  
aralasha,  
ENDI  
JAZOLANADI



OG'RIQ

12

Afsuski, qop ko'targan  
ayollar ortida ham ayrim  
ALP KELBATLILAR  
BOR...

”

YIL BOSHIDA QORAQALPOG'ISTON VA XORAZMDA 285 MING NAFAR BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN BEPUL OVQATLANISH YO'LGA QO'YILDI. BU BORADA YETARLI TAJRIBA ORTTIRDIK. KELGUSI O'QUV YILIDAN BOSHLAB USHBU AMALIYOT QOLGAN VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHRI MAKTABLARIDA HAM JORIY ETILADI VA BUNING UCHUN 2,3 TRILLION SO'M AJRATILADI. BU JARAYONLARNI SHAFFOF TIZIM ASOSIDA TASHKIL ETISH, FARZANDLARIMIZNI SOG'LOM VA SIFATLI OVQAT BILAN TA'MINLASHGA XALQ TA'LIMI VAZIRI MAS'UL VA JAVOBGAR BO'LADI.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT  
MRIZIYOYEVNING OLIY MAJLISGA YO'LLAGAN  
MUHOJIRAT NOMASIDAN

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA Sentyabrdan boshlab BEPUL OVQAT BERILADI!

Hukumat hisobotida keltirilishicha, 2022-yilda maktabgacha ta'lim qamrovini oshirishga qaratilgan choralar natijasida 6 yoshli bolalarning 90 foizi maktabga tayyorlov kurslari tomonidan qamrab olindi. 2 048 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga quyildi. Shuningdek, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish borasidagi ijobiy ishlar ko'lami ham keng bo'ldi. Yil boshiga nisbatan toifaga ega o'qituvchilar soni 220 110 nafardan 325 818 nafarga yoki 43,8 dan 64,8 foizga oshdi. Maktab ta'limi tizimiga 120 nafar xorijiy ekspert va pedagoglar jalb etildi.



2021-2022-yillarda 840 holatda tadbirkorning bankdagi hisobidan pullar yechib olingan...  
«Milliy tiklanish» oddiy fuqarolarning ham hisob raqamlari daxlsiz bo'lishi kerakligini ta'kidlayapti Farhod Zayniyev Jahongir Shirinov tomonida, Alisher Hamroyev esa...

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida ana shu raqamlar atrofida muhokama qilindi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yil»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 2022-yildagi ijrosi muhokamasi bilan boshlagan yig'ilishda partiyaning Saylovoldi maqsadlaridan kelib chiqib, davlat dasturining inson kapitalini rivojlantirish, xususan, maktabgacha va maktab ta'limi hamda turizm yo'nalishida amalga oshirilgan ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Muhokamalar chog'ida partiyaning Saylovoldi dasturida oliy ta'lim qamrovini 50 foizga yetkazish, bunda ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish vazifalari ham o'rin olgani qayd etilib, bu boradagi ishlar ijobiy baholandi. O'tgan yili 4 ta oliy ta'lim muassasasi dunyoning kuchli 1000 talik reytingdagi joy oldi. 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasalarini tanlash va ularni xalqaro reytinglarga kiritish uchun esa maqsadli dastur ishlab chiqildi. «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygoxlariga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish

ko'zlangan bo'lib, 140 nafar iqtidorli va istiqbolli yoshlar «Jamg'arma stipendianti» deya e'tirof etildi va 46 nafari AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va Germaniya kabi davlatlarga o'qishga yuborildi. Yana bir raqam: aholi uchun «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil» dasturi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi uchun Davlat budjetidan 10 mlrd. so'm ajratildi. Xorijiy turistlar sonini 9 mln.ga yetkazish maqsadida esa 50 mlrd. so'm ajratilib, shundan chet elda O'zbekistonning turizm salohiyatini targ'ib qilishga 20 mlrd. so'm, xorijiy OAV, mashhur turistik blogerlar uchun press-turlar tashkil etishga yana 10 mlrd. so'm sarflandi. Natijada 11,3 mln. fuqaromiz uchun ichki sayohatlar tashkil etildi, mamlakatimizga esa 5 mln. dan ortiq xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Fraksiya rahbari Alisher Qodirov yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarni ijobiy baholar ekan, Taraqqiyot strategiyasida O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga qaratilgan bir necha vazifalar belgilanganini ta'kidladi va bu ishlariga bosh-qosh bo'ladigan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tili departamenti qisqartirilganiga e'tibor qaratdi. – Endi Davlat tilini rivojlantirish vazifalari bilan kim shug'ullanadi, bu boradagi

ishlarni kim muvofiqlashtiradi? – deya hukumat vakilidan izoh so'radi A.Qodirov. Vazirlar Mahkamasi vakili hozirda Bosh vazir kotibiyati tuzilganini va bu vazifa bilan aynan ushbu tuzilma shug'ullanishini ma'lum qildi. Deputatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirish masalasini ham ko'tardilar. Jumladan, tegishli vazirlikdan Davlat rahbarining joriy o'quv yilidan boshlab barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham bunday amaliyotni yo'lga qo'yish topshirig'ini bajarish borasida olib borilayotgan ishlar hisobotini so'radilar. Hukumat vakilining aytishicha, 2023-yilning sentyabr oyidan boshlab respublikamizdagi 10 ming 104 ta maktabning 2 mln. 530 ming nafar 1-4 sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirish yo'lga qo'yiladi. Deputatlar muhokamalar jarayonida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq yana bir necha masalalarni, xususan, joylarda ayrim fan o'qituvchilarining yetishmasligi, tizimda qog'ozbozlik holatlari hamon davom etayotganini aytib, bu borada zarur choralar ko'riliishi kerakligini ta'kidladilar. Yakunda Davlat dasturining ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hisoboti ma'qullandi. Fraksiyaning 30-yanvar kungi yig'ilishida esa deputatlar

«O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlarning bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama qildilar. Ma'lumki, ushbu qonun loyihasi bilan bank hisobvarag'idagi pul mablag'larini tadbirkorlik subyektlarining roziligisiz qonunga xilof ravishda ko'chirish yoki olib qo'yish bo'yicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risida hamda Jinoyat kodekslarida javobgarlik belgilanmoqda. Chunki bu borada aniq javobgarlik belgilanmagan bo'lsa, 2021-2022-yillarda 840 ta holatda tadbirkorlarning bankdagi «cho'ntag»ga qo'l solingan. Deputatlar qonun loyihasida faqat tadbirkorlarning emas, balki jismoniy shaxslarning ham bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari daxlsizligini ta'minlash nazarda tutilishi lozim degan taklifni o'rtaga tashladi. Jumladan, deputat Jahongir Abdurasulov hozirda ayrim banklar tomonidan jismoniy shaxslar kartasidagi pul mablag'idan ruxsatsiz vaqtincha foydalanish holatlari ham yuz bermoqda va qonunchilikka bunga qarshi aniq chora belgilanmaganini bildirdi. Oliy Majlisdan ushbu qonun

loyihasiga mas'ul qo'mita raisi Jahongir Shirinov ushbu masalaga izoh berar ekan, tadbirkor qanday himoya qilinsa, jismoniy shaxs ham shunday himoya qilinishi kerakligini ta'kidladi. Lekin qonun loyihasida normaning shunday mazmunda yozilishiga bir necha sabablar bor. Jumladan, Prezidentimizning tadbirkorlar bilan uchrashuvidan so'ng aynan shu masalada Qaror qabul qilgan, Qonun konsepsiyasida faqat tadbirkorlar nazarda tutilgan va o'zgarishlar Ma'muriy va Jinoyat kodekslarining aynan tadbirkorlar huquqini himoya qilish bilan bog'liq bobiga kiritilmoqda. Alisher Hamroyev J.Abdurasulovning taklifini qo'llagan bo'lsa, Farhod Zayniyev fikrlarini ma'qulladi. – Amaldagi Jinoyat kodeksida jismoniy shaxsning pul mablag'ini noqonuniy olib qo'yish bo'yicha bundanda og'ir jazo choralarini belgilangan. Agar qonun loyihasiga jismoniy shaxslar qo'shiladigan bo'lsa, konsepsiya buziladi, – dedi F.Zayniyev. Qariyb bir soatga davom etgan muhokamalardan so'ng ushbu qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Ravshan MAHMUDOVI,  
«Milliy tiklanish» muxbiri



# Endi bu chinakam saylov, TAYINLOV EMAS!

**Nihoyat Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga saylov o'tkazish bo'yicha adolatli qaror qabul qilindi...**

Nomzodlarni siyosiy partiyalardan ko'rsatish borasidagi tashabbusimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi qarori bilan tasdiqlandi va bu Yoshlar parlamentining yangi Nizomi va Reglamentida o'z aksini topdi.

Ma'lumki, kuchli parlament kuchli partiyadan boshlanadi. Kuchli partiya esa kuchli nomzodlar orqaligina o'z o'rnini va ovozigina ega bo'ladi. Deputat «tashik»dan emas, eshikdan kirishi kerak. Shundagina biz xalqimizni, xususan, yoshlarimizni partiya g'oyasiga ishonitirib, ortimizdan ergashtira olamiz. Shu maqsadda partiyamiz tomonidan saylov qonunchiligi va tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator takliflar ilgari surildi. Bu haqda keyinroq batafsil to'xtalamiz.

Bugun eshitish va eshitilish huquqi har bir shaxsning a'moliga aylanayotgan jarayonda siyosiy partiyalar zimmasidagi mas'uliyat ham oshmoqda. To'g'ri,

hali deputat bo'lmasidan turib ham qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish mumkin. Biroq tan olaylik, hali «Parlamentni xalq uyi»ga aylantirishda ishga solinmagan imkoniyatlarimiz ko'p va bu tabiiy jarayondir. Sababi bugun hammamiz o'zgaryapmiz, yangilanishlarga ko'niyapmiz. Nafaqat hukumat tizimida, balki partiyamizda ham bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar bunga misol bo'lishi mumkin.

Partiyamiz «Yoshlar qanoti» tomonidan anchadan beri yoshlar va bolalar parlamentini tashkil etish g'oyasi ilgari surilayotgan edi. Saylovoldi dasturimizda ham Yoshlar parlamentini tashkil etish g'oyasi o'z ifodasini topgandi. Shu ma'noda ham yoshlarning siyosiy faolligini rag'batlantirishda dunyoda keng qo'llanadigan Yoshlar parlamenti modeli O'zbekistonda ham tatbiq etilayotgani siyosiy sohadagi eng ma'qul innovatsiya ekanligini ta'kidlash lozim. Bu g'oya barcha siyosiy partiyalarning «Yoshlar qanoti» faoliyatini yanada jonlantirishga olib keladi, albatta. Davlatimiz rahbari

2021-yil 30-iyunda Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbiridagi nutqlarida bu masalaga alohida to'xtalib, «Biz parlamentda yoshlarni qo'llab-quvvatlaymiz!» degan ezgu tashabbusni

uzluksizligi yoshlarni demokratiya maktabiga yaqinlashtirish, oxir-oqibat parlament va mahalliy kengashlarda yosh deputatlar sonining ko'payishiga olib keladi ham. Bu borada son ketidan

palatasida 30 yoshgacha bo'lgan deputatlar 6 foizni tashkil etmoqda. Ularning ikki nafari aynan «Milliy tiklanish» partiyasidan ekani bizni quvontiradi, albatta. Biroq bu ko'rsatkich mahalliy Kengashlarda hatto bir foizni ham tashkil etmasligini hech qanday bahona bilan oqlab bo'lmaydi. Ya'ni, mahalliy Kengashlarda 30 yoshgacha bo'lgan deputatlar 0,6 foizni tashkil etadi. Bu esa yoshlarning siyosiy faolligini rag'batlantirishda ular uchun kvotalar ajratish masalasi mazkur yo'nalishda ham dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan, Yoshlar parlamenti faoliyatining yo'lga qo'yilishi yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun yaxshi imkoniyatdir.

24-yanvar Kuni Yoshlar parlamenti saylovining navbatdagi bosqichiga hujjatlar topshirish jarayoni boshlandi. Arizalarning ko'pligi bizni quvontirdi, albatta. Demak, biz to'g'ri yo'ldamiz va bu saylov tayinlov bo'lmasligiga ishonamiz.

**Feruza MUHAMMADJANOVA,**  
partiya Markaziy Kengashi  
raisi o'rinbosari

“ O'tgan 2,5 yil davomida Yoshlar parlamenti a'zolarining 150 ga yaqin qonunlarga taklif bergani nafaqat salmoqli son, balki mazkur yo'nalishdagi sifat ko'rsatkichlardan ham dalolat beradi. Eng muhimi, ularning yarmidan ko'pi qonunlarda o'z ifodasini topdi.

amalgacha oshiramiz. Ushbu tizim asosida siyosiy yetuk va faol yigit-qizlarimizni milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etamiz», degan edilar.

O'tgan 2,5 yil davomida Yoshlar parlamenti a'zolarining 150 ga yaqin qonunlarga taklif bergani nafaqat salmoqli son, balki mazkur yo'nalishdagi sifat ko'rsatkichlardan ham dalolat beradi. Eng muhimi, ularning yarmidan ko'pi qonunlarda o'z ifodasini topdi. Demak, parlament o'zining yoshlar masalasidagi maslahat organi bilan muloqotga kirishdi. Bu jarayonning

quvish emas, balki ushbu jarayonni haqqoniy va shaffof tashkil etishdan eng avvalo partiyalar manfaatdordir.

To'g'ri, bugun partiya a'zolarining yarmidan ko'pi yoshlar ekanini e'tirof etsak-da, afsuski vakillik organlarida yoshlarning ulushi nihoyatda kam ekanini tan olmaslik mumkin emas. Garchi, bu masalada dunyo parlamentlariga nisbatan holatimiz yaxshi bo'lsada, ammo o'sishdan, yangilanishlardan to'xtab qolmasligimiz kerak. Dunyo parlamentida yoshlar ulushi atigi 2 foizni tashkil etayotgan bir paytda, O'zbekiston parlamenti quyi

## ✓ Munosabat

# YURAKDAGI OG'RIQLARGA MALHAM QO'YILDI



**Tursinoy MURATOVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

**Davlatimiz rahbarining Qirg'izistonga tashrifi unda erishilgan kelishuvlar, imzolangan bitimlar, chegara masalalarining to'liq hal etilishi bilan bog'liq jihatlarini inobatga olganda tarixiy voqea bo'ldi.**

Shuni alohida qayd etish joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, Qirg'iziston bilan hamkorligida yangi davr boshlanib, azaldan qonqarindosh bo'lgan ikki xalq o'rtasida yana do'stona munosabatlar qaror topa

boshladi. Tashrif davomida erishilgan kelishuvlar, ayniqsa, chegara oldi viloyatlarida yashovchi aholi uchun juda quvonarli bo'lgani bejiz ta'kidlanayotgani yo'q. Andijonning Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan Qo'rg'on tepa tumani fuqarosi sifatida aytishim mumkinki, nihoyat ushbu hudud fuqarolarining eng katta muammosiga odilona yechim topildi. Ya'ni, chegara bilan bog'liq uzoq yillardan buyon hal bo'lmayotgan ziddiyatli masala ikki xalq manfaati asosida va xalqaro huquq

talablari doirasida hal bo'ldi. Azaldan quda-anda bo'lib, bir choynakdan choy ichgan, to'y-marakalarida bir qozondan osh yegan xalqlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar yana qaytadan tiklanganiga hali ham ko'pchilik ishonchsizlik bilan qarayapti. Chunki bu masala endi hal bo'lmasa kerak degan munosabat shakllanib bo'lgandi. Bugun, ming shukurki, o'zbeklarning Qirg'izistonga, qirg'izlarning esa O'zbekistonga o'tishi bilan bog'liq barcha to'siqlar olib tashlandi. Jumladan, Fuqarolarning o'zaro borib-kelishlari

to'g'risidagi bitim Bayonnomasiga ko'ra, endilikda ikki xalq vakillari bir davlatdan ikkinchi davlatga ID-karta orqali kirishlari mumkinligi belgilab qo'yildi. Fuqarolarning chegaradan kirish-chiqish haqidagi ma'lumotlari esa elektron tarzda qayd etiladigan bo'ldi. Eng asosiysi, pasportga muhr bosishga endi hojat yo'q. Ushbu yengillikka istalgan transport vositasi bilan o'tishda amal qilinadi. Shu jihatdan ham qo'rg'on tepaliklar ushbu tashrifni tarixiy voqelik sifatida tilga olishyapti.



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan saylangan deputatlar mahalliy Kengash sessiyalariga 737 ta (2021 yilning mos davridagi ko'rsatkichdan 174 taga ko'p) masala-takliflar kiritdilar. Doimiy komissiyaga olib chiqilgan takliflar soni esa 1314 tani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 157 taga ko'p) tashkil etdi.

# WAZIYATGA

Parlamentdan mahalliy kengashlarga:

## ISHONCHNI OQLASH MAS'ULIYATI yoki saylovchilar noroziligining sabablari nimada?

**Paulo Koeloning: «Alkimyogar» romanida shunday ibora bor: «Agar (qachonki) inson o'zi jiddu jahd bilan kurashgan orzusiga o'zini munosib hisoblasa, u go'yoki Xudoning qo'lidagi quroлга aylanadi va mana shu olamga, Kurrai zamanga tashrifining asl mohiyati unga ayon bo'ladi».**

Keyingi paytlarda OAV, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda islohotlarning yetakchi kuchiga aylanishi shart bo'lgan milliy parlament va mahalliy kengashlardagi deputatlik guruhlarini faoliyati qayta-qayta tanqid qilinib, go'yo ushbu institutlar «o'zini jiddu jahd bilan kurashgan orzusiga o'zini munosib hisoblamayotgani ta'kidlanmoqda. Ha, chindan ham bugungi saylovchining didi nozik, hatto aksariyat saylovchilarning asabi ayrim tepsa-tebranmas mas'adadilar va mahalliy deputatlarining e'tiborsizligi sabab tarang tortilgan ham bor gap. Bundan ham yomoni ijtimoiy tarmoqlarni allaqachon egallab olgan axboriy pandemiya bir-birimizni umuman eshitmaydigan ham qilib qo'ydi. Yodingizda bo'lsa, Yangi O'zbekiston islohotlariga amaliy start berilgan 2017-yildagi ilk Murojaatnomasida Prezidentimiz tomonidan jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan, eng asosiysi, odamlar noroziligini keltirib chiqarayotgan muammolar qatorida siyosiy partiyalar ham alohida «muhabbat» bilan tilga olingan edi. Xususan, Davlat rahbari: «...Oliy Majlis a'zolari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisiga aylanishi zarurligini alohida ta'kidlab, amaliy chora-tadbirlar dasturini tasdiqlagan edik. Lekin bu dastur ijrosidan xalqimiz qanday naf ko'rdi, qaysi deputat yoki senator odamlarimizning og'irini yengil qilishga, sog'lig'ini saqlash, ekologiya, kommunal xo'jalik, ta'lim yoki boshqa sohalarida ularni qiynayotgan muammolarni hal qilishga qanday hissa qo'shdi? Bu boradagi aniq misollarni xalqimiz hayotida ham, matbuot va televideniya ham ko'rayotgani yo'q. Bu haqiqat», degandilar. Mahalliy kengash deputatlari haqida gap ketganida esa Prezident Murojaatnomasida «Qachonki, hududlardagi vaziyat ijroiy tomonga o'zgarsa, budget ijrosi to'liq ta'minlash, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rnlari yaratilsa, eng muhimi xalqimizning turmush darajasi

yaxshilansa, mahalliy kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi» deyilgandi. Tan olish kerak, o'shandan keyin parlament va mahalliy kengashlar faoliyatida birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, deputatlik guruhlarini faoliyati takomillashtirildi, mahalliy kengashlarda deputatlik so'rovi institutidan samaraliroq foydalanila boshlandi. Ammo shunga qaramay, Murojaatnoma orqali parlament va mahalliy kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi hal-haluzok ko'ngildagidek emas. Ayniqsa, deputatlik maqomi mohiyatini tushunib yetmaslik, saylovchiga berilgan va dalarning unutilayotgani, mahalliy rahbarlar oldida yetti bukilib salom berishni saylovchi manfaatidan ustun qo'yayotgani ayrim xalq vakillarining subutsizligi hazrati saylovchi e'tiroziga sabab bo'layotir. Natijada Davlat rahbari urg'u berganidek, hududlardagi vaziyat hamma yerda ham ijobiy tomonga o'zgarayotgan. Deputatlik budget ijrosi nazorat qilinayotgani yo'q, yangi ish o'rnlari yaratish masalasida ham deputatlik nazorati institutidan nomigagina foydalanilyapti, xolos. To'g'ri, deputatlar faoliyatidagi natijadorlik faqat ulargagina bog'liq emas. Bunga deputat so'rovlarini yarim chaqaga olmagan, yoki saylovchi ko'targan masala bilan qabuliga kelgan deputatni hatto qabul qilmay, faqat hokim va o'z vazirigagina qulluq qilayotgan mansabdorlar ham sabab bo'layotir. Ma'lumki, Prezidentimizning 2022-yil 20-dekabrda Murojaatnomasida yana «Parlament», «Senat», «Deputat» va «Mahalliy kengash» so'zlari qayta-qayta takrorlandi. Chunki mamlakat taqdiri, kelajagi bilan bog'liq jarayonlar, ayniqsa, Qonunlar qabul qilish va ularning takomillashtirilishi, Farmon va Qorollar hamda davlat dasturlarining ijrosini ta'minlash, kerak bo'lsa, oyog'i yerdan uzilgan rahbarlar tanobini tortib turishda deputatlik korpusining o'rni va roli, ayniqsa, bugungi o'tish davrida juda muhimligi aytilyapti. Murojaatnomada yana bir bor

o'z vakolat va imkoniyatlaridan senatorlar va deputatlarining samarali foydalanmayotganiga ham e'tibor qaratildi. Tan o'laylik, besh qo'l barobar emas, bu jarayonda saylovchi talabi asosida deputatlar ham faollashyapti, ularning ko'pchiligi saylovchilarni qiynayotgan muammolarni his qila boshladilar. Bu esa deputat va uning nomzodini ko'rsatgan siyosiy partiyalarga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlay boshladi. Mana bir misol: o'tgan yili «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan saylangan deputatlar mahalliy Kengash sessiyalariga 737 ta (2021-yilning mos davridagi ko'rsatkichdan 174 taga ko'p) masala-takliflar kiritdilar. Doimiy komissiyaga olib chiqilgan takliflar soni esa 1314 tani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 157 taga ko'p) tashkil etdi. Eng asosiysi, deputatlarimiz tomonidan 1595 nafar mansabdor shaxsning hisoboti eshitildi. Saylovchilarga ko'proq yordami tegayotgan «Deputatlik so'rov»i tahlilida ham ijobiy ko'rsatkichlar qayd etildi. Jumladan, 2019-yilda 4208, 2020-yilda 6274 ta, 2021-yilda 7058 ta so'rov yuborilgan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 6478 taga yetdi. Ushbu raqamlar shubhasiz, deputatlarining saylovchilarga yaqinlashib, mavjud muammolarga yechim topishda real qadamlar qo'ya boshlaganlaridan dalolatdir. Ammo deputatlik so'rovlarining 5294 tasi (81,7 foiz) ijobiy hal qilingani holda 108 ta (1,6 foiz) so'rov mas'adadi tashkilotlar muddatidan kechikib javob qaytarganlarini, 77 ta (1,1 foiz) so'rov esa umuman e'tiborsiz qoldirilganini aytish joiz. Deputatlik so'rovlariga umuman javob qaytarmagan «dohiy»lar faqat o'zbekchilik nuqtayi-nazaridagina aybdorga chiqarilmayotganlarini o'ylab ham ko'rmayaptalar. Prezident Murojaatnomasida o'tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdor korruptsiyada ayblanib, javobgarlikka tortilgani, lekin bu masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashilayotgani ham bejiz ta'kidlanmadi. — Deputat va senatorlar,

mahalliy kengashlar ham bong urib, aniq sohalarni tahlil qilib, korruptsiyani bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishlari kerak emasmi? Har bir deputat o'zining okrugidagi budget hisobidan bo'layotgan qurilishlar, yo'llarni har oyda borib ko'rsa, buyurtmachi va pudratchidan sifatini talab qilsa, bilasizlarmi, ahvol qanday o'zgaradi? Buning uchun sizlarda yetarli vakolat ham, shijoat ham bor, — dedi Prezident. Bu bilan Davlat rahbari yana bir bor deputatlar faoliyati qoniqlik emasligiga e'tibor qaratdi. Deputatlar faoliyatidagi «depsinish» holatiga olib kelgan yana bir omil borki, bu ayrim hududlarda deputatlikka nomunosib kishilarning saylanib qolganidir. Yaqinda ijtimoiy tarmoqda saylovchi yoki oddiy fuqaroga 2 donadan non tarqatgan partiya a'zolarining xatti-harakati uzoq muhokama qilinganiga guvoh bo'ldik. Uch, to'rt kun mobaynda bu holatga na partiya va na o'sha suratdagi faollar aniqlik kiritdilar. Eng yomoni ana shu paytda non uzatayotgan qo'l egasidan tortib, oq sharfi bilan tanilgan yetakchi partiya hayotida kechgan barcha voqea-hodisalar miridan-sirigacha eslandi, qizg'in muhokama qilindi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq a'zolari ko'tarasiga barcha «ezgu niyatlar va faraxbaxsh orzularini» partiya poyiga gulchambar qo'ygandek baralla bildirdilar. Yaxshiyamki, partiyaning g'oyaviy quroli — gazetasi rahbari masalaga oydinlik kiritdiiyu, «non tarqatuvchi mehri qo'llar» nomli ijtimoiy serialga nuqta qo'yildi. Ma'lum bo'lishicha, O'zLiDePning Xorazm viloyatidagi faollari tomonidan uyushtirilgan xayriya amallari aks etgan suratlar ayrim mediasfera «olg'ir»lari tomonidan o'zlashtirilib, ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan. Partiya nashri bosh muharriri shunday yozadi: «Qoyil devorasan kishi. Qaniydi, boshqa savobli ishlardayam ana shunday «ommaviy» uyushishsa, qancha quvongan bo'lardik. Bularga aslida non bahona, xolos, ularning «noni» boshqa yoqda, qanday qilib bo'lsa-da, ommani

chalq'itsa, soxta piar orqali xayp yasasa. To'g'ri, «anomal» degan, lekin xalqona ibora bilan aytganda, qorasovuqda qiynalib qolgan, mehr-muruvvatga muhtoj oilalar, bemor va keksalar holidan xabar olish mamlakat miqyosida ommaviy tus oldi. Buning nimasi yomon, aytin? Bu biror qaror yo buyruq asosida qilinmayapti. To'g'ri, balki biror davlat yo nodavlat tashkilotining rahbari o'z xodimlariga hoy, baraka topkurlar, qo'ni-qo'shni, mahalladoshlarimizni shunday sinovli kunlarda bir yo'qlab qo'ysak bo'lar, degandir. Buyam odamgarchilik yuzasidan qilinadigan ish-ku, aslida. Kechagi holat Xorazmning Hazorasp tumanida yuz bergan. Aynan ana shu xayrli ishga bosh-qosh bo'lgan partiya faolining izoh berishicha, ular yashaydigan mahallada (yaqinda Toshkentda ommaviy ravishda osh tarqatish marosimlari uyushtirilganida og'zidan bol tomib maqtaganlaram bor anavi piarchilar orasida) doshqozonda osh pishirilib tarqatilibdi. Va, tabiiyki, chitoyimand xonadonlarga palov bilan birga turli oziq-ovqat mahsulotlari hamda bir-ikki yuz kilodan ko'mir berilibdi. Bor gap shu. Ijtimoiy tarmoqlar (yoqamni ushlab qoldim: nega demaysizmi, bir yoqda ona tilimiz, tibbiyotdagi yovuzliklar, yoki bo'lmasa necha martalab qayta-qayta bosilib yotgan maktab darsliklari, toptalayotgan qadriyatlar bir zumda unutildi) da shimoliy mintaqadagi chekka bir qishloqda saxovat urug'i sepilayotgan manzaradan bittagina kadr yulib olinib... muhokama qilinayotgani qaysi mantiqqa to'g'ri keladi?! Aqli raso odam o'zbekchilikni tushunadi. Qani aytinlar, qay birimiz tanishmi-notanishmi biror xonadonga kirib, darvozadan yugurib chiqqan bolakayga biror shirinlik yo pul uzatmaganmiz? Yo ayollarimiz istalgan xonadonga bo'sh qo'l bilan kirganini kim eslaydi? Yana xorazmlik qo'li ochiq insonlarni qoralab, uyalmay-netmay yozmagan, aytmagan shuncha malomat, haqoratlar qaysi insoniy qoidaga to'g'ri keladi?

O'ylamang, shaxsan men bu postim bilan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi sha'nini himoya qilayotganim yo'q. U mening himoyamga muhtoj ham emas. Men bor-yo'g'i azaliy qadriyatlarimizdan biri bo'lmish oddiygina SAXOVATPESHALIK, MEHR-MURUVVAT ULASHISH degan urf-odatlarimiz kalaka qilingani uchun ham tomoshabin bo'lib turolmadim».

Chindan ham «XXI asr» gazetasi bosh muharriri Norqobil Jalilning kuyinganicha bor. Bugun ijtimoiy tarmoqda yo'q odamlarni olomonlashish holatiga tayyorlayotgandek orqa-oldiga qaramay kovush qaytaryapti, to'g'ri ham, noto'g'ri ham yuziga qora chaplash, yaxshiyu yomonni birdek sazoyi qilish oddiy hol bo'lib qoldi.

Ammo masalaning boshqa bir jihatiga ham e'tibor qaratmaslik mumkin emas: deputatlik korpusi va siyosiy partiyalar vakillariga e'tibor rosa kuchayganiga qaramay, aksariyat mahalliy kengash deputatlari ma'lum bir sanalar, bayramlar arafasidagina mehribon va g'amxo'r kishilarga aylanib olishyapti. Ikki ta non, bir qop kartoshka, nari borsa 2 kg. makaron yoki guruch olib, muhtoj oilalar holidan xabar olish bahonasida hisobot uchun suratlariga tushishyapti, «oldi-berdi» jarayonlari aks etgan kadrlarni esa ijtimoiy tarmoqqa joylamoqdalar. Yaqinda bir telegram kanalida hatto og'ir ahvolda yotgan bemor otaxonga nimadir uzatayotgan bir deputatning «buyuk mehribonligi» aks etgan suratlar tarqaldi...

Afsuski, bunday holatlar birinchi marta sodir etilayotgani yo'q. Demak, qars ikki qo'ldan chiqyapti...

Ammo ijtimoiy tarmoqning bu qadar «ijodiy barkamol»ligiga ham osonlikcha erishmadik. Uzoq va qiyin yo'l bosib keldik bu kunlarga. So'z va matbuot erkinligining noto'g'ri talqin qilinishi ham, ijtimoiy tarmoqlardagi «tarbiyaviy soat»lar ham bunda muhim rol o'ynayotir.

An'anaviy matbuotni izdan chiqarish, majburiy obuna bahonasida bosma nashrlarni sindirishgacha qaratilgan xatti-harakatlar ham aslida olomonlashishga undash jarayonining bir qismi edi. Shuning uchun ham hozircha biz ijtimoiy tarmoqlardagi xavf-xatarlarni yetarlicha baholay olmayapmiz deyish qiyin. Siyosiy partiyalar vakillari ham hali bu jarayonlarning nozik jihatlarini to'la ilg'ay olmayaptilar.

Siyosatshunoslik fanlari doktori, professor Muqimjon Qirg'izboyevning fikricha, har qanday jamiyatda siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan eng muhim vazifasi bu – fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilishdan iboratdir. – Ammo hozircha bizda ushbu masalalar faqat davlat hokimiyati

organlarigagina taalluqli bo'lib qolmoqda, – deb yozadi olim. – Korruptsiyaga qarshi kurashda ham partiyalarimiz haligacha o'z «okop»laridan bosh ko'targanlari yo'q. Siyosiy partiyalar o'z saflariga intellektual salohiyatli, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan, vatanparvar ziyolilar va yoshlarni jalb eta olmayotgani ham bor gap. Shuning uchun ham aksariyat partiyalar yildan-yilga o'z siyosiy resurslarini boy berishmoqda.

Shuningdek, o'tish davrida paydo bo'ladigan muammolar – ishsizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini amalda qo'llab-quvvatlash, inson haq-huquklarini himoyalash masalalari ham deyarli partiyalar e'tiboridan chetda.

Yana bir muammo bu – uyushmagan yoshlarning ko'payishi, ularni xalqaro migratsiya girdobiga tortilishi yoki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish, bandlik kabi dolzarb masalalarni hal etishda partiyalarning nomigagina ishtiroki.

Ma'lumki, ayni paytda mahallalarda xotin-qizlar, «Nuroniy» va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning boshlang'ich yacheykalari faol ish olib bormoqda. Lekin shuncha yillar o'tsa-da, siyosiy partiyalar mahallalarda chinakam boshlang'ich tashkilotlarini tuza olmadilar. Yana bir muhim omil: bizda partiya yetakchilarini saylashda ko'pincha uning «og'ir», «vazmin» va «andshali»lik sifatлари asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda esa partiya yetakchisi maqomiga erishish uchun nomzod xalq tomonidan e'tirof etilishi, uning adolat prinsiplarini amalga oshirish, tashabbuskorlik, ko'pchilik manfaatlarini himoya qilish kabi sifatleri e'tiborga olinadi. Faqat ana shunday yetakchilar bo'lmagan boshqa bandlarni chiqarib tashlash kerak. Dastur oddiy saylovchining tushunish va anglash qobiliyatiga mos ravishda tuzilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Saylovchi uchun osmondagi oliy va dalardan ko'ra, hayotiy masalalar muhimroq. Partiyalarning hozirgi dasturlarida belgilangan maqsad va vazifalarni anglashda nafaqat saylovchilar, balki «partiya funkcionerlari»ning o'zlari ham qiynalishmoqda».

Taniqli siyosatshunosning ayrim fikrlari bahsi bo'lsa-da, ammo ishsizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash masalasidagi qarashlariga qo'shilmaslik mumkin emas. Bu borada ayrim siyosiy partiya vakillarining o'zlarini kecha turmushga chiqqan kelinchakdek tutayotganlari, ya'ni hayotiy masalalarga o'ta yuzaki qarayotganlari bor gap. Bunga Xalq demokratik partiyasi

Markaziy Kengashi raisi Ulug'bek Inoyatovning kuni kecha ijtimoiy tarmoqda e'lon qilingan fikrlari misol bo'lishi mumkin:

«Deputatlarimiz orqali saylovchilar bilan, xalqimiz bilan yanada yaqindan turib muloqot o'rnatishimiz zarur. Xalq demokratik partiyasining respublika bo'yicha 200dan ortiq jamoatchilik qabulxonalari ishlaydi, lekin biz bu tuzilma faoliyatini tanqidiy baholab, uni jamiyat miqyosida takliflar olinadigan tuzilmaga aylantirish, odamlarga yaqinlashtirish haqida o'ylayapmiz».

Ha, chindan ham o'ylash yaxshi. Ammo bugungi saylovchi 90 yillar saylovchisi emasligini, ular partiyalardan o'ylarni

Faqat Yangi O'zbekiston islohotlari boshlanganidan keyingina jamoatchilik bilan muloqot maydoni yaratilib, og'riqli muammolarni birin-ketin bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ldi. Eng muhimi, bunday muloqotlar paytida siyosiy partiyalarga munosabat masalasida ham kamchiliklar mavjudligi tan olina boshlandi. Shu ma'noda ham bugungi islohotlar davrini mamlakat siyosiy hayotidagi tub burilish davri deb atasak to'g'ri bo'ladi. Siyosiy partiyalarga bo'lgan qarashlarning o'zgarishi, ya'ni jamiyat hayotidagi rolining tan olinishi bilan esa jamoatchilikning parlamentdan tortib, mahalliy kengashlarga ham bo'lgan munosabati ham

etmoqda. Deputatimizni, senat a'zosi yoki oddiy saylovchimiz farqi yo'q. Zero, bugun odamzod ko'proq tashqi ta'sirlarga berilib yashamoqda. Boshqacha aytganda, ko'rinmas bir kuch go'yoki jamiyatni olomonlashishga undayotgandek...

Qo'lga kiritilgan natijalar haqida gapirib, tahlil qilsang, olomon qarq'ishiga uchrayсан, deputatlar, senatorlar orasida fidoyilarcha mehnat qilayotganlari ham bor, deb yozsang avlod-ajdod bilan qora ro'yatga kiritilasan. Tan olaylik, kutilmaganda dunyoning ayrim hududlarini vayronaga aylantirayotgan urushlarni ko'rib, «musaffo osmon» iborasi mohiyatini biroq bo'lsa-da anglay boshladik.

Ayrim «katta og'a»larning telba-teskari, ammo tizimli da'vatlaridan keyin Mustaqillik bir martagina qo'lga kiritilib, qiyomatgacha himoya qilinadigan ne'mat ekanini ham yurakdan his etayapmiz.

Olomonlashuv biz emas, ana shunday kuchlarga qo'l kelishini ham tushunayotgandekmiz go'yo. Zero, bugungi islohotlar farzand, nabiralarmizning erki, tinchligi va g'ururi uchun xizmat qilajagini teran anglaydigan kunlarda yashayotganimizni unutmashimiz kerak. Bunda esa ta'bir joiz bo'lsa, birlamchi mas'uliyat ming-minglab fuqarolar ishonchini qo'lga kiritgan siyosiy partiyalar, ularga mansub deputatlar zimmasiga yuklatiladi. Davlatimiz rahbarining har bir tashabbusi va ilgari surayotgan e'tiroz bildirayotganliklaridek maqtanarli jihatlarimiz kam.

Buni o'tgan yili 3 mingdan ziyod mansabdor shaxsning korruptsiyada ayblanib, jinoyi javobgarlikka tortilgani haqidagi xabardan ham ko'rish mumkin. Agar mahalliy deputatlarimiz o'zgina yurakliryoq, o'zgina prinsipialroq va halolroq bo'lganlarida balki o'nlab, yuzlab jinoyatlarining oldi olingan, eng muhimi bu jinoyatlardan jabr ko'rgan yurtodamlarimiz soni kamayarmidi?

Prezidentimizning dekabr oyidagi Murojizatnomasi bilan qayta-qayta tanishib, jamiyatni uyg'otadigan asosiy kuch buningodkor xalqimiz ishonchiga sazovor bo'lgan siyosiy partiyalar vakillari – deputatlar ekaniga yana bir karra amin bo'lish mumkin.

Ammo ayrim siyosiy kuchlarning o'zlari mudrayotgan bo'lsa-chi, bu shubhasiz, ishonchni oqlash mas'uliyati unutilayotganidan dalolatdir. Bunga esa aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi tub islohotlar davrida.

**Odilbek RAHMONOV,**  
siyosiy sharhlovchi

# ”

Partiya nufuzini oshirishning yana bir yo'li bu – partiya dasturlarini soddalashtirishdir. Ya'ni, partiya dasturlaridan saylovchi manfaatiga taalluqli bo'lmagan boshqa bandlarni chiqarib tashlash kerak.

emas, amaliy harakatlarni kutayotganini bir laha bo'lsa-da unutmashimiz kerak.

Ekspertlarning fikricha, XDP paydo bo'libdiki, partiyaning buyuk innovatsiyasi sanalmish jamoatchilik qabulxonalari haqida gapiradi, yozadi. Balki bu to'g'ri yondashuv hamdir. Ammo tan olish joizki, bugungi fuqaro siyosiy partiyalardan, ayniqsa, ular muassisligida tashkil etilgan «jamoatchilik qabulxonalaridan» ko'ra, Oliy Majlis Senatiyu Parlament quyi palatasi yoxud joylarda real natijalar berayotgan sektor rahbarlarga borib, o'z dardlarini aytishni ma'qul ko'rishyapti.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi yetakchisi Alisher Qodirovning bir maqolasida siyosiy partiyalar faoliyatidagi oqsoqliklar va ularni keltirib chiqargan omillar ochiqroq talqin qilinganini ta'kidlash joiz. Partiya yetakchisining yozishicha, nihoyat Yangi O'zbekistonda siyosiy partiyalarga nisbatan munosabat va qarashlar o'zgarimoqda.

– Siyosiy partiyalarni inson tanasidagi nerv tolalariga qiyoslash mumkin, – deb yozadi muallif. – Ana shu tomirlar sog'lom bo'lsa, inson to'g'ri yashab, to'g'ri qarorlar qabul qiladi. Aksincha bo'lsa, inson tanasida og'riqlar paydo bo'la boshlaydi...

Haqiqat shundaki, biz uzoq yillar davomida siyosiy partiyalarni va ularning jamiyatdagi rolini inkor etib keldik. Oqibatda tanada turli og'riqlar paydo bo'ldi. Buni shaxsga sig'inish deb ataymizmi, ko'rib ko'rmaslikka olishmi, loqaydikmi, harqalay o'z qo'limiz bilan muammolarni yaratibgina qolmay, ularning tog'dek uyulishiga ham yo'l ochib berdik. Bu esa oxir-oqibatda jamiyat tanasining ayrim a'zolarini falajlantirishgacha olib keldi.

o'zgardi. Ma'lumki, fikrlarning xilma-xil emasligi har qanday jamiyatda ham mavjud muammolarga turli tomonlardan qarash imkonini deyarli yo'qqa chiqaradi. Muammoning faqat bir qirrasini ko'rish esa uning yechimi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan boshqa qirralarni idrok etish, tahlil qilish kabi urinishlar yo'lini to'sadi. Aynan ana shunday «xislat», ta'bir joiz bo'lsa, uzoq yillar O'zbekistonni orqaga tortib keldi. Zotan, erkin o'y, erkin fikr bo'lmagan jamiyatda rivojlanish bo'lmaydi. Shuning uchun ham bugun Yangi O'zbekiston islohotlaridagi eng muhim o'zgarish deya jamiyatning fikrlay boshlaganini aytish lozim. Bu bejiz emas. Chunki keyingi yillarda odamlar o'ylay boshladilar va o'zgarishlarga nisbatan yangidan-yangi g'oya va takliflarni berishyapti. Bunday holat esa siyosiy partiyalarning o'zaro raqobat qilishlariga ham yo'l ochib beryapti».

Ha, chindan ham siyosiy maydonda raqobatning yo'qligi har qanday jamiyatning depnsishiga, odamlar orasida esa ishonchsizlikning urchishiga olib keladi.

Gap saylovchilarning partiyalar yoki shu partiyaga mansub deputatlarga munosabati haqida ketganida Alisher Qodirov aytganidek, uzoq va yaqin tariximizdan meros bo'la boshlaydi... Haqiqat shundaki, biz uzoq yillar davomida siyosiy partiyalarni va ularning jamiyatdagi rolini inkor etib keldik. Oqibatda tanada turli og'riqlar paydo bo'ldi. Buni shaxsga sig'inish deb ataymizmi, ko'rib ko'rmaslikka olishmi, loqaydikmi, harqalay o'z qo'limiz bilan muammolarni yaratibgina qolmay, ularning tog'dek uyulishiga ham yo'l ochib berdik. Bu esa oxir-oqibatda jamiyat tanasining ayrim a'zolarini falajlantirishgacha olib keldi.

”

Tahlilchilar ma'lumotiga ko'ra, mintaqa aholisining 45 foizi O'zbekistonda, 25 foizi Qozog'istonda, 13 foizi Tojikistonda, Qirg'iziston va Turkmanistonda esa 8,5 foizi istiqomat qilmoqda.

SIVOSAT



**Bahrom SHARIPOV,**  
xalq deputatlari  
Mirobod tumani  
Kengashi deputati

Yangi O'zbekistonda tarixiy ildizlariga ega, tili, dini va qadriyatlari bir bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari bilan manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga birlamchi e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Tahlilchilar ma'lumotiga ko'ra, mintaqa aholisining 45 foizi O'zbekistonda, 25 foizi Qozog'istonda, 13 foizi Tojikistonda, Qirg'iziston va Turkmanistonda esa 8,5 foizi istiqomat qilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston azaldan Markaziy Osiyoning asosiy ilm-fan, madaniyat va san'at, savdo-sotiq markazi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotidan xavfsizlik masalalarigacha O'zbekiston ishtirokisiz amalga oshmagan. Keyingi yillarda esa O'zbekiston Prezidentining sa'y-harakati va tashabbuslari bilan davlatlarimiz o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa,

2017-2019-yillarda yillik savdo aylanmasi o'rtacha 50 foizga o'sib, 5,2 mlrd. dollarga yetdi. Hatto, global pandemiyaga qaramay, 2020-yilda bu ko'rsatkich 5 mlrd. dollardan kamaymadi. 2022-yil yakuni bo'yicha esa O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo hajmi 17,2 foizga o'sib, 7,5 mlrd. AQSH dollariga yetdi.

Bunda esa tarixi, dini, tili bir, yaqin madaniy qadriyatlarga ega davlat – Qirg'iziston bilan savdo aloqalarida eng yuqori o'sish kuzatilganini ta'kidlash joiz. Xususan, Qirg'iziston bilan tashqi savdo aylanmasi 1,3 mlrd. dollarni, o'sish ko'rsatkichi esa 32,1 foizni tashkil etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 26-27-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'lishi o'zaro aloqalar rivojini yangi

bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi, albatta. Oliy darajadagi muzokaralarda do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, o'zaro savdoni ko'paytirish, sanoat kooperatsiyasini qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy infratuzilma loyihalarini ilgari surishga qaratilgan Deklaratsiya hamda davlat va hukumatlararo, idoralar va hududlararo 25 ta hujjat, shuningdek, Biznes-forum doirasida umumiy qiymati 1,6 mlrd. dollarlik shartnomalar imzolandi. Sanoat kooperatsiyasi doirasida ham qariyb 500 mln. dollarlik yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. «Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston» temir yo'lini qurish bo'yicha ishlarni faollashtirish, «Andijon-O'sh-Irkishtom» avtomobil yo'li salohiyatini to'liq ishga solish maqsadida qo'shma transport-logistika kompaniyasini tashkil

etishga kelishib olindi. Muloqotlar chog'ida Davlatlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etilib, bu borada qator aniq tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, ulug' qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning 95 yilligini keng nishonlash, O'shda Bobur nomidagi O'zbek musiqali drama teatrlarining ochilishida birgalikda spektakl namoyish etish, ziyolilar va yoshlarni faol jalb etgan holda yangi format – Avlodlar muloqotini tashkil etish, talabalar spartakiadasi, qo'shma festival va konsertlar, ijodiy tadbirlarni o'tkazish shular jumlasidandir. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston rahbarining Qirg'iz Respublikasiga tashrifi 5 yil avval boshlangan ezuq intilishlarni amalga yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

## O'ZBEK VA QIRG'IZ HAMKORLIGI: BOY BERILGAN IMKONİYATLAR QAYTA TIKLANYAPTI

### Bilasizmi?

Qiyomat boshlanganda Isrofil alayhissalomning suri chalinib barcha bandalar uning ortidan ergashar, hatto qabrda yotgan o'liklar ham tirilib arshga chiqib borar ekan. Allohning buyrug'i ila yerdagi jami mavjud binolar yiqilib, tuproqqa qorisharkan. Neholki, faqat tandirgina yiqilmay turar ekan. Shunda Allohdan vahiy kelib buning sababini so'rasa:

– Bekam uzoq yillar mening taftimga bag'ri kuyib, eri va bolalari uchun rizq pishirdi. Bekamning gunohlaridan kechsang yiqilaman, – deya javob berar ekan.

«Tandir» so'zining ma'nosi ham aslida «ta'n» – «dir», ya'ni bekasining gunohlari uchun ta'ndir, degan so'zidan olingan ekan...

Qahhorjon UMAROV



### Kuting!

**MIJUZLARGA**

**ERTAK AYTAYOTGAN BANK**

**YOKI «ALOQABANK»  
BILAN ALOQAMIZ  
UZILGAN  
BO'LSA-DA, ALOQADA  
QOLAYOTGANLARNI  
OGOHLANTIRIB  
QO'YISH KERAK DEB  
HISOBLADIK.**

Kelgusi sonlarda

# AXBORIY PANDEMIYA

yoxud fikrlar boshqaruvidagi dunyo



Dunyoni fikr boshqaradi, jumladan inson ongini ham.

Hatto odamlar ko'radigan tushlar ham ularning o'ylariga monand bo'ladi...

Zakiy xalqimiz orasida shunday ziyoli qatlam borki, ushbu qatlam vakillari bir piyola choy ustida hali siyohi qurib ulgurmagani gazetalar sahifalarini yoki taqdimoti o'tkazilmagan kitoblarni varaqlaydilar va buning zavqini hech bir lahzaga alishmaydilar... O'zbekiston Milliy Media Assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hamkorligida o'tgan «Media Mansarda – 2023» loyihasi doirasida «Jurnalistikada media savodxonlikning ahamiyati: Keyslar tahlili» mavzusidagi seminar treningda ana shular haqida so'z bordi.

Tadbirda O'zMMA, O'zJOKU mas'ullari va assotsiatsiyaga a'zo nodavlat teleradiokanallar hamda bosma nashrlar vakillari ishtirok etdi. Seminarni O'zMMA boshqaruvi raisi Sherzodxon Qudratxo'ja ochib, globallashayotgan dunyoda axborotning roli, unga bo'lgan talab va ehtiyoj masalalariga to'xtaldi. Shundan keyin O'zJOKU professori Nozima Murodovaning «Jurnalistikada dezinformatsiya, yolg'on xabarlar va ularning turlari to'g'risida»gi ma'ruzasi eshitildi. «Keyslar tahlili» to'g'risida esa O'zJOKU dekani Gulnora Zokirova fikr yuritdi. O'zJOKU kafedrasini mudiri Shahnoza Tayloqovaning «Mediasavodxonlik nega kerak?» mavzusidagi chiqishi ham ko'pchilik e'tiborini tortdi. Erkin muloqot, erkin bahs tarzida kechgan tadbirda professional jurnalistikadan tortib,

fuqarolik jurnalistikasining faol «ijod» qilayotganigacha turli fikrlar bildirildi.

Xo'sh, chindan ham bugungi kunda fuqarolik jurnalistikasi qay darajada faol? Ijtimoiy tarmoqlarda ular orqali uzatilayotgan axborotlar qanchalik rost yoki haqiqatga yaqin? Buni qanday anglash mumkin? «Haqiqat oyog'ida»gi paytavasini o'ragunicha yolg'on yarim dunyoni aylanib chiqadi»gan zamonamizda ma'lumotlar xavfsizligini qanday ta'minlash, rostni yolg'on xabardan qanday ajratish mumkin? Bir misol: agar go'sht olmoqchi bo'lsak, o'nata sotuvchidan saralab, keyin xarid qilamiz. Sababi, sifatsiz va aynigan go'sht badbo'y va qo'lansa hidi bilan ko'ngillarni behuzur qiladi. Ammo negadir axborot «xarid» qilishga kelganda uni saralamaymiz. Aynigan mahsulot hazm jarayoniga qanchalik ta'sir qilsa, aynigan axborotlar ham inson ko'ngli va ongiga shunchalik salbiy ta'sir qilib, «axboriy portlash»larga olib keladi.

Axborotlarning aynigan yoki aynimaganini bilish uchun esa ba'zan o'qigan bo'lishning o'ziga yetarli emas. Buning uchun biron farosat ham kerak bo'ladi. Inson olim bo'lishi mumkin, ammo farosatli bo'lmasa, uning olimligi jamiyatga bir chaqalik foyda keltirmaydi. Agar yodingizda bo'lsa, dunyoda insonlar o'rtasida «inventarizatsiya» sifatida baholangan kovid haqiqatda ham qanchadan qancha insonlar yostig'ini quritdi. Ushbu virusni yaratgan olimlar buni yer yuzida aholi soni ko'paydi, bu esa iqtisodiy tangliklarni keltirib chiqarmasligi uchun odamzotni kamaytirishga yechim deb o'yladilar. Natijada

olimlik bilimlarini o'ta xavfli, inson umrining oxirigacha u bilan birga yashaydigan virusni yaratishga sarfladilar. Ammo buning ortidan butun dunyo ahli jabr chekishiga ularning farosati yetmadi. Bu haqda o'ylab ham ko'rmasdilar, yoki atayin shunday yo'l tanlashdi...

Noaniq, tasdiqlanmagan, hatto hech qanday ishonchli manbasi bo'lmagan xabarlar zaharli qo'ziqorindek ko'payib ketishi ham pandemiyaga o'xshaydi. Bu axboriy pandemiyadan omon qolish esa har qanday insonning o'ziga, zakovatiga bog'liq.

Ayni paytda soxta axborotlarni yaratuvchi manfaatdor kimsalar shunday yo'l tutishmoqda-ki, ular birinchi o'rinda yuzlariga niqob taqmoqdalar.

Bu niqob ortida kimlarning yuzi, niyati qanaqa, ma'lumotlarni qanday niyatda e'lon qilayotgan, bilib bo'lmay qoldi. Hamma zamonlarda ham turli fisoq-u fasodlardan keyin dunyoda notinchliklar boshlangan. Bugun ijtimoiy tarmoq deb atalayotgan dunyoning ko'plab fuqarolari ana shu illatga xizmat qilayotgan, desak xato bo'lmaydi.



**To'g'ri, bugun yurtimiz tinch, jismimiz xotirjam, ammo har birimizdan axborot pandemiyasidan eng avvalo ruhimizni himoya qilish talab etilyapti. Chunki yolg'on-yashiq axborotlarni o'qiyverib, ularga ishonaverib, bebaho ne'mat bo'lmish sog'lig'imizni ham boy beryapmiz. Shu darajada axborot oqimi ko'paydi-ki, kezi kelganda ular oldida inson zoti dovdirab, ba'zan tahlikaga ham tushib qolayotgani rost.**


Nafisa RUSTAMOVA,  
«Milliy tiklanish» muxbiri



Boston universiteti olimlari haftasiga 60 va 40 soat ishlaydigan xodimlar natijasini qiyoslab, deyarli farq topisholmagan. Negaki, haftasiga 60 soat ishlaydigan xodimning kutilmagan «stres»lari natijasida ish samaradorligi pasaygan.

DOLZARB  
MAVZU

# BU TASHABBUSDAN TASHABBUS MOHIYATINI ANGLIYANMAYOTGANLAR



**Samandar ISMOILOV,**  
«El-yurt umidi» jamg'armasi  
stipendiati, Angliyaning Lester  
universiteti magistranti

Yaqinda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining opasigillarimizning ishga bir soat kech kelib, bir soat erta ketishi kerakligi haqidagi taklifi yuzasidan ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. Unda 9 369 nafar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi ishtirok etgan bo'lsa, 46 foizi taklifni ma'qulladi. Respondentlarning 42 foizi esa qarshi ekanini bildirib, bunday imtiyoz ayollar o'rtasida ishsizlik darajasining oshishi olib kelishini ta'kidladi. 12 foizi ishtirokchi esa betaraf qoldi. Tan olish joizki, hanuzgacha mehnat bozorida hal etilishi kerak bo'lgan muammolar, ayniqsa, ayollar mehnati bilan bog'liq masalalar oz emas. Xususan, ishchi-xodimlarga yuqori maosh va zarur shart-sharoitlar yaratish, eng muhimi, ishchi-xizmatchilarga rag'bat berish masalasida oqsoqliklar yaqqol ko'zga tashlanyapti. Keling, bu masalada mulohaza bildirishdan avval bir jihatga oydinlik kiritsak. Nega aksariyat mehnat migrantlari Yevropaga intilishadi? Kolumbiya universiteti va AQSH Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ham aynan maoshlar, ishchi-xodimlarni samarali ishlashga undash, buning uchun esa muntazam o'z ustida ishlash, bilimni oshirish masalalariga bag'ishlandi. Ana shu tadqiqot yakunida esa ishchi-xodimlarga yo'naltirilgan sarmoya har qanday tashkilotning kelajakdagi muvaffaqiyati va davlat rivojini belgilaydi, degan xulosaga kelib chiqdi. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham malakali kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilyapti. Xususan, iqtidorli yoshlar tanlov asosida dunyoning eng kuchli oliygohlariga yuborilib, xarajatlari davlat tomonidan to'lab berilyapti. Tabiiyki, bunday munosabatdan keyin har qanday xodim va talaba izlanadi, badiiy va ilmiy adabiyotlarni mutolaa

qiladi. Ammo afsuski, bunday e'tiborga sazovor bo'layotgan yoshlar ko'p emas. Ma'lumotlarga qaraganda, faol yoshlar mamlakatimizdagi umumiy ishchilar sonining 10 foizini tashkil etadi, xolos. Xo'sh, qolgan yoshlarimiz ham o'zi qiziqqan sohalar bo'yicha bilimi va tajribasini oshirayaptimi? Yoki OTMdagi olgan bilimlari bilan cheklanib qolayaptimi? Bor gap shuki, keyingi paytlarda o'z bilimni oshirish uchun turli kitoblar, adabiyotlar mutolaa qilayotganlar haddan ziyod kamayib ketmoqda. Ko'pgina tashkilotlarda esa yosh mutaxassislarni ilm olishiga rag'batlantirish haqida

## YUZ O'GIRISHI MUMKIN

o'ylanmayapti ham. Vaholanki, o'z bilimi va salohiyatini oshirmayotgan, kitob o'qimay qo'ygan xodimlar ijodiy fikrlay olmasligi, biron-bir masalani hal etish mohirligi ularda rivojlanmasligi fanda o'z tasdig'ini topgan. Shu o'rinda, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlariga oid bir masalaga e'tibor qaratsak: aksariyat davlat tashkilotlarida xodimning ish samaradorligi emas, necha soat ishxonada o'tirgani ko'proq qadrlanadi. Ma'lum bo'lishicha, Turkiyada talaba universitetni tugatgach, unga butun umr o'sha universitet kutubxonasidan foydalanishga ruxsat berilar ekan. Angliyada esa ishchi-xizmatchilar haq-huquqini himoya qiladigan bir qator nodavlat tashkilotlar, mehnat sudlari va elektorati asosan ishchilardan iborat bo'lgan siyosiy partiya bor ekan. Birlashgan qirollikda esa 1964-yildan beri xodimni adolatsiz ishdan bo'shatish, mehnat qonunchiligining buzilishi va ishdagi «diskreminatsiya» holatlari sud orqali tartibga solinar edi. Niderlandiya qonunchiligida eng kam ish haqi soatiga 11 AQSH dollari tarzida belgilanib, ishchilarning me'yordan ortiq ishlagani uchun 2 barobar mehnat haqi to'lash ommalashgan. Shu o'rinda haftada 48, bir kunda esa 10 soatdan ortiq ishlash qonun bilan taqiqlanganini aytish joiz. Yana bir muhim fakt: xodimni ishdan bo'shatish o'ta murakkab jarayon bo'lib, aksariyat

hollarda ish beruvchi mehnat shartnomasini ishchilarni sug'urtalash agentligining ruxsatisiz yoki tuman sudiga murojaat qilmasdan bekor qila olmaydi. Saudiya Arabistonida ishchilarni 2 yoki 3 yillik mehnat ta'tilini bir martada olish imkoniyati berilgan (Arabiston sudida ishlovchi bir kursdoshim ayni shu imtiyozdan foydalanib, mehnat ta'tilida Angliyada 3 oylik huquq kursida o'qidi). Ana shunday imtiyoz va imkoniyatlar sabab ham mehnat migrantlari ko'proq Yevropaga borib ishlashni xohlashyapti. Mutaxassislarning fikricha, soatbay ish haqining aniq belgilanishi investorlar oqimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayapti. Chunki investor kompaniya xarajatlarni kamaytirish maqsadida arzon ishchi kuchi yollashga moyil bo'ladi. Aytish kerakki, ishchi-xizmatchilarning ko'pchiligini tashkil etuvchi ayollar huquqlari ham xalqaro tajribada alohida o'rin tutadi. Boston universiteti olimlari haftasiga 60 va 40 soat ishlaydigan xodimlar natijasini qiyoslab, deyarli farq topisholmagan. Negaki, haftasiga 60 soat ishlaydigan xodimning kutilmagan «stres»lari natijasida ish samaradorligi pasaygan. 40 soat ishlagan xodim esa o'z gacha ishtiyog bilan mehnat qilgan, kitob o'qigan va hatto unda yangiliklar yaratishga intilish kuzatilgan. Finlyandiyalik olimlar ham ortiqcha ish soati korxonaga foyda emas, balki zarar keltirishini ilmiy jihatdan isbotlab berishgan. Bundan xulosalar esa «Milliy tiklanish» tomonidan ilgari surilgan g'oya juda katta natijalarga, eng asosiy mehnatga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib kelishini isbotlamoqda.







Endilikda, sud ishlarini hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytiriladi. Shuningdek, sud hujjatlarining ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar joriy etiladi.

## Kimki sudyalalar ishiga aralashsa,

# ENDI JAZOLANADI

**Keyingi yillarda sud tizimi faoliyati samaradorligini oshirish, sudyalarni tanlash va lavozimga qo'yish tartibini takomillashtirish, har bir ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarori chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi.**

Xususan, sud tizimi faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlashda ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimi bo'lishi Sudyalar oliy kengashi ta'sis etildi. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida ilk bor sudya lavozimiga muddatsiz tayinlash amaliyoti joriy etilib, amalga oshirilayotgan bunday ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga ko'tarildi.

Ta'kidlash joiz, sohadagi ishlarining huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjatda sudyalarni saylash va tayinlash tartibi, sudyalarning maqomi, ularning huquq va majburiyatlari, sudyalar va ularning oila a'zolarining moddiy hamda ijtimoiy himoyasi mustahkamlandi. Shuningdek, qonundagi normalar bilan sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalik lavozimiga tayinlanadigan, saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar belgilangan standartlarga moslashtirildi. Sudyalar, sud raislari va rais o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tartibi belgilandi. Sudyalar vakolatlarini to'xtatib turish, tugatish asoslari, tartibi yanada aniqlashtirildi.

Prezidentimizning yaqinda imzolangan «Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ham sohadagi ishlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Ushbu hujjat

bilan 2023–2026-yillarga mo'ljallangan Sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.

Unda «Inson qadri uchun» g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalari siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish hamda sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari etib belgilandi. Shuningdek, sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish, sudyalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda siddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg'otish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish masalalari ham nazarda tutilmoqda.

Endilikda, sud ishlarini hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytiriladi. Shuningdek, sud hujjatlarining ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar joriy etiladi. Qayd etish kerak, bugungi kunda jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatligini tekshirish institutini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ikkinchi o'qishga



*Prezidentimizning yaqinda imzolangan «Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ham sohadagi ishlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Ushbu hujjat bilan 2023–2026-yillarga mo'ljallangan Sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.*

tayyorlanmoqda. Mazkur qonun loyihasi bilan tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan ishlarni mazkur sudlarda taftish tartibida qayta ko'rib chiqish, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko'rilgan ishlarni Oliy sudning sudlov hay'atlarida taftish tartibida qayta ko'rib chiqish, yuqori instansiya sudlari tomonidan ishni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibini bekor qilish va ularga ish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish mas'uliyati yuklanmoqda. Farmonda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning ishiga har qanday aralashuv qat'iy jazolanishi, sudyalarning xavotirsiz ishlashi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratish ko'zda tutilmoqda. Jumladan, sudga hurmatsizlik qilish holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, buning uchun ma'muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish va jinoyi javobgarlik belgilash, sud ishlarini hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish, shuningdek, sud hujjatlarining ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish, odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlikka oid har bir jinoyat ishi yakuni bo'yicha jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali majburiy ravishda

xabardor qilish tartibini joriy etish belgilanmoqda. E'tiborlisi, Farmon bilan Sud-huquq sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish boshqarmasi negizida Odil sudlov sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish departamenti tashkil etildi. Mazkur departament sud faoliyati sohasidagi qonunchilikni hamda odil sudlov muammolarini tizimli tahlil qilish, sud-huquq sohasidagi qonunchilikni, sud amaliyoti va sud ish yurituv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, odil sudlov samaradorligini ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil qiladi. Shu bilan birga, odil sudlov sohasiga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rni yaxshilash bo'yicha tizimli va izchil choralar ko'radi hamda fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy qonunchilik, sudlarning mustaqilligini ta'minlash sohasida xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan prinsiplari va normalarini o'rganish, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Bir so'z bilan aytganda, farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan sudlarda ishlar sifatli va o'z vaqtida ko'rilishiga erishiladi. Eng asosiysi, sudlarning chinakam mustaqilligi ta'minlanib, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchi oshadi, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlanadi va qonuniylik mustahkamlanadi.

**Davron ARIPOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

YANGI YILDA QO'SHIMCHA 140 TA OILAVIY SHIFOKOR PUNKTI VA POLIKLINIKALARI, 520 TA OLIS VA CHEKKA MAHALLADA IXCHAM TIBBIYOT PUNKTLARI TASHKIL ETILADI.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLISGA YO'LLAGAN MUHOJIRAT NOMASIDAN

HUDUDLARDA

# OLTINKO'LDA SHUNDAY MAHALLA BOR



Andijon viloyatining Oltinko'l tumanida joylashgan «Ijtimoiyat» mahallasida 550 taga yaqin xonadon bo'lib, ularda 3 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. E'tiborli tomoni, haligacha ushbu mahalladan bironta shaxs xorijga ish izlab ketgani yo'q. Ishga yaroqli fuqarolarning 80 foizi o'z-o'zini band qilib, usta-hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi. Qolgan 20 foiz aholi esa korxonalar va tashkilot, ijtimoiy soha muassasalarida xizmat qiladi. Mahalla raisi – xalq deputatlari Oltinko'l tuman Kengashi deputati Odiljon Daminov tashabbusi bilan mahallada partiyaning g'oya va maqsadlariga xayrixoh bo'lgan bir guruh hunarmandlardan iborat Boshlang'ich partiya tashkiloti ham faoliyat yuritmoqda. Ta'kidlash lozimki, aynan deputatimiz sa'y-harakati bilan ushbu mahalla so'nggi besh yilda haqiqiy ma'noda usta-hunarmandlar mahallasiga aylandi. 2016-yilda mahallada 36 ta xonadon hunarmandchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, bugunga kelib ular soni 500dan oshdi. Ya'ni, deyarli barcha xonadonlarda usta-hunarmandlar bor. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat Andijonda,

balki mamlakatimizning boshqa viloyatlari, hatto qo'shni davlatlarda ham xaridorgir. Yaqinda partiya faollari uy va ofis mebellari ishlab chiqaruvchi Zayniddin Ashurovlar xonadonida bo'lib, oilaning besh nafar a'zosi bilan uchrashdilar. – Bo'sh kunimiz yo'q, – deydi Z.Ashurov. – Payshanba va yakshanba kunlari tayyor mahsulotlarni bozorga olib chiqamiz. Qolgan kunlari ish bilan bandmiz. Shu hunar ortidan to'ylar qildik, farzandlarimizni o'qitdik, uyli-joyli bo'lishdi. Mahsulotlarimizga bo'lgan talab ham ortib boryapti. Ba'zan bozorga chiqishga ham hojat qolmaydi. Mijozlarning o'zlari uyimizga kelishadi. Oilamiz bilan har kuni bir to'plam stol-stul tayyorlaymiz. Bu kuniga 300-400 ming so'm daromad deganidir Adhamjon Ismoilov ham qariyb 20 yildan buyon hunarmand. U ham mahallada «Ustoz – shogird» an'anasini davom ettirib, ko'plab yoshlarga ustozlik qilayapti. Mahallada «ustoz opa» deya nom chiqargan Odinaxon opa bilan ham suhbatlashdik. Opa maktabda o'qituvchi bo'lish bilan birga darsdan keyin uyda idish-tovoqlarga gul va rang berarkan.

Uning aytishicha, bu hunari unga ota meros. Hozir o'quvch qizlarga ham hunar sirlarini o'rgatmoqda. Maqsadi, kelajakda shogirdlari qo'lida jilo topgan mahsulotlarni dunyoga ko'z-ko'z qilishdir. – Mahallaga birkirtilgan hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi bilan oyda bir marta xonadonma-xonadon yurib, hunarmandlarning muammolarini o'rganamiz. Sohadagi o'zgarishlar, yangiliklar haqida ma'lumotlar beramiz. Zarurat bo'lsa, kredit, xomashyo bilan bog'liq masalalarda yordam ko'rsatamiz. Hunar o'rganish istagidagi yoshlarni qiziqishiga qarab usta-hunarmandlarga birkiritamiz. Shuning uchun ham mahallamizda bekorchi yo'q, – deydi Odiljon Daminov. Viloyatimizda maqtashga arzigulik bunday hunarmand mahallalar ko'p. Quvonarlisi, ularning aksariyatiga partiyamiz a'zolari rahbarlik qilishyapti. Maqsadimiz ularning har biriga borib, milliy qadriyatlarimizni davom ettirayotgan usta-hunarmandlarning faoliyati va o'ziga xos jihatlarni o'rganishdir.

**Shoxrux ABDUSAMATOV,**  
partiyaning Andijon viloyati  
Kengashi raisi o'rinbosari

## ✓ Reyting

### FIDE REYTINGIDA O'ZBEKISTONLIKLAR

**Jahon shaxmat federatsiyasining har oy e'lon qilinadigan reytingida ayni damda kuchli 100 talikdan 3 nafar shaxmatchimiz o'rin olgan.**

**18(30).** GM Nodirbek Abdusattorov (2004) – 2734.

**58(61).** GM Rustam Qosimjonov (1979) – 2678.

**82(94).** GM Javohir Sindorov (2005) – 2661.

**Xotin-qiz shaxmatchilar kuchli 100 taligida ham bir nafar vakilimiz bor:**

**96.** WGM Nilufar Yoqubboyeva (2000) – 2314.

**Eng kuchli 20 yoshgacha shaxmatchilar yuzligidan esa 2 nafar vakilimiz o'rin olgan:**

**2(4).** GM Nodirbek Abdusattorov (2004) – 2734.

**9.** GM Javohir Sindorov (2005) – 2661.

**20 yoshgacha qizlar kuchli 100 ligidan 2 shaxmatchimiz o'rin olgan:**

**47(65).** WFM Umida Omonova (2006) – 2185.

**82(72).** Afruza Hamdamova (2009) – 2120.

**Rapid yo'nalishida 2 vakilimiz kuchli yuzlikda:**

**22(23).** Nodirbek Abdusattorov – 2714.

**40(45).** Rustam Qosimjonov – 2662.

**Rapid bo'yicha 20 yoshgacha shaxmatchilar kuchli 100 ligiga 3 nafar hamyurtimiz kirgan:**

**2.** GM Nodirbek Abdusattorov (2004) – 2714.

**8(9).** GM Javohir Sindorov (2005) – 2578.

**50.** IM Muhiddin Madaminov (2006) – 2415.

**Rapid bo'yicha 20 yoshgacha qizlar kuchli 100 ligidan 2 nafar qizimiz joy olgan:**

**17(18).** WFM Umida Omonova (2006) – 2205.

**37(38).** WFM Afruza Hamdamova (2009) – 2135.

**Blis yo'nalishida 1 nafar shaxmatchimiz kuchli yuzlikdan joy olgan:**

**35(39).** GM Nodirbek Abdusattorov – 2672.

**Blis bo'yicha xotin-qiz shaxmatchilar kuchli 100 ligida ham 1 nafar vakilimiz bor:**

**47(49).** WFM Umida Omonova (2006) – 2319.

**Blis yo'nalishida 20 yoshgacha shaxmatchilar kuchli 100 taligidan 3 nafar vakilimiz joy olgan:**

**4.** GM Nodirbek Abdusattorov (2004) – 2672.

**11.** GM Javohir Sindorov (2005) – 2591.

**19.** IM Muhiddin Madaminov (2006) – 2511.

**Blis yo'nalishida 20 yoshgacha qizlar kuchli 100 taligidan 2 nafar shaxmatchimiz o'rin olgan:**

**3.** WFM Umida Omonova (2006) – 2319.

**19(17).** WFM Afruza Hamdamova (2009) – 2210.





**«Milliy tiklanish»ning qaysidir sonida «Quvnoqlar va zukkolar»da namoyish qilinayotgan sahnalar keskin tanqid qilinganini eshitib qoldim. Agar shu gap rost bo'lsa, o'sha maqolani yana qayta e'lon qilishlaringizni so'rayman. Chunki bu haqda har kun yozishimiz, har soat gapirishimiz kerak. Bir toifa odamlar bolalar tarbiyasi deb kuyunib yotibdi. Ayrim mas'uliyatsizlar esa yoshlarni tarbiyasizlar qatoriga qo'shish bilan ovvora. Uyat, QVZga ham, uning mutasaddilariga, ayrim ishtirokchilarga ham. Pul uchun, obro' uchun ayrim savodi yo'q, san'atni uyatsiz sahnalardan qidirayotgan chalamullalarga qo'shilgani uchun uyat QVZchilarga!**

O'zbek hajviya va satira janri shu qadar qashshoqlashdimi? Bunga ishonish qiyin, albatta! Ammo odamlar tili va dilidan joy olgan ijtimoiy muammolarni samimiy hazillari bilan jamoatchilik «muhokamasiga» qo'ya boshlagan «Quvnoqlar va zukkolar»ni ham endi oila davrasida ko'rib bo'lmay qolgani yuqoridagi fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'qligini ko'rsatyapti. Xo'sh, kimdan andoza

olayapmiz, aziz yoshlar? Kimlar sizga ana shunday yalang'och hazillar bilan sahnaga chiqishni maslahat berishyapti?

Ma'lumki, ayrim qiziqchi san'atkorlarning bachkana va saviyasiz hazillari sabab «Dizayn», «Million», «Qalpoq» kabi guruhlarni allaqachon ko'pchilik oilalar «qora ro'yxatga» kiritib qo'yganlar. Afsus, ulardagi «andishasizlik virusi» QVZchilarga ham yuqqan ko'rinadi. Bunga 2022-yil final bellashuvini tomosha qilgan odam ishonch hosil qilishi mumkin. Tomoshabinlarning olqishlari esa zal xolis tomoshabinlar bilan emas, balki asosan bellashayotgan jamoalarni quvvatlovchilar bilan to'ldirilganini, anglatadi, albatta. Shu o'rinda bir misol keltirsak: «Yulduzli kokteyl» shartidagi tanqili san'atkorlar, ayniqsa, elimiz suygan Valijon Shamsiyevning hazillari ham milliy san'atimizning andisha chegaralaridan anchayin yiroqlashayotganini ko'rsatishi mumkin.

«Onamdan qolgan toshoyna qani» deganda Ergash Karimov biror nojo'ya qiliq qilganmidiki, xalq hozirgacha bu lavhani tabassum bilan tomosha qiladi. Yoki G'a'ni A'zamov, Husan Sharipov, Hojiboy Tojiboyev singari el ardoqlagan darg'alarning biror marta bachkana qiliqlar yoki andishasizlik bilan sahnaga chiqib, xalqni kuldrganini eslay olasizmi? Shunday ekan, nega «dohiy»lardan iborat hakamlar hay'ati «Agrolayf» jamoasining «chatishtirish», «qorni dam bo'lgan rahbar», «hokim», «Moliyachi»ning «Nodira uylandi», «Yosh gvardiyachi»ning «Noodatiy diskoteka» kabi chiqishlarini «5»ga baholaganlarini tushunish qiyin. Hazil o'z yo'liga, ammo «kosa tagida nimkosa» qabilidagi bunday yalang'och askiyalalar bilan qadriyatlarimizga tupurayotganimiz ertaga qimmatga tushishini nahotki o'ylab ko'rmayapmiz? Darvoqe, haddidan oshayotgan bu «virus»ning oldini olish mas'uliyati KImlarning zimmasida? Bu savol ko'proq ana shu «dohiy»larni o'ylantirishi kerak, degan fikrdamiz!

MEHRIJAHON

## Chumolining zakovati

Nima uchun chumolilar to'plagan va yer ostiga ko'mib qo'ygan donlar qayta o'sib chiqmaydi? Olimlar o'tkazgan tadqiqotlariga qaraganda chumolilar don va urug'larni yer ostiga ko'mishdan oldin ularni ikkiga bo'lib qo'yisharkan. Ma'lum bo'lishicha, don va urug'lik ikkiga bo'lib qo'yilsa, har qancha yer unumdor bo'lmasin, u o'sib chiqmas ekan.

Lekin chumoli o'zi g'amlagan kashnich donini to'rt bo'lakka bo'lganini ko'rgach, olimlar battar taajjubga tushishibdi. Keyin aniqlashib, chumolini shu qadar mohir qilib Yaratganga hamdlar aytishdi. Buni qarangki, kashnich urug'i ikkiga bo'linsa ham ko'karib chiqar, lekin to'rt bo'lakka bo'linsa, qayta unib chiqmas ekan.



## Yevropada dori-darmon yetishmovchiligi

Yevropa Ittifoqining «PGEU» farmatsevtika guruhi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijasiga ko'ra, a'zo davlatlar, shuningdek, Turkiya, Kosovo, Norvegiya va Shimoliy Makedoniya kabi 29 mamlakatda, aholining qariyb to'rttdan birida 600 dan ziyod, 20 foizida 200-300 turdagi dori vositasi yetishmasligi ma'lum bo'ldi, deb yozdi «Politico». Ayniqsa, antibiotiklar, bolalar paratsetamoli va qon bosimini tushiruvchi dorilar tanqisligi yaqqol sezilmoqda.

Mutaxassislar ushbu vaziyatni talab ortishi, ta'minotdagi muammo sabab taklif qisqarishi bilan bog'lamoqda. Ayrim kompaniyalar yuqori energiya xarajati tufayli dori ishlab chiqarish hajmini kamaytirdi. Yanvar oyida Yevropa Ittifoqi ma'muriyati kamchil dori vositalarining strategik zaxirasini yaratish to'g'risida bosh qotirayotganini ma'lum qildi.

G.ABDULLAYEVA, O'ZA

## AFSUSKI, QOP KO'TARGAN AYOLLAR ORTIDA HAM AYRIM

## ALP

Mutaxassislar tomonidan 2022-yili tazyiq va zo'ravonlikka uchrigan 40 mingga yaqin xotin-qizga himoya orderlari berilgani aytilmoqda. Qayd etilishicha, ularning 21,5 mingdan ortig'i ruhiy zo'ravonlik, 10 mingga yaqini jismoniy, 400 nafari iqtisodiy, 42 nafar ayol esa jinsiy zo'ravonlikka uchrigan. 7 mingdan ortiq ayol esa turli tazyiqlarni boshdan kechirgan. Ko'rilgan choralar natijasida esa 19 mingga yaqin oila yarashtirilgani, 428 mingga yaqin ishsiz ayollar ro'yxati shakllantirilib, 6,5 ming nafari ishga joylashtirilgan. 90 ming ayolga esa tibbiy yordam ko'rsatilgan. Ana shu davrda xotin-qizlarni turli tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish maqsadida ishga tushirilgan 1259 ishonch telefoniga 10 mingdan ortiq murojaat kelib tushgani esa masalaning nihoyatda jiddiyligidan dalolatdir.



## KELBATLILAR BOR

**BMT ma'lumotlariga qaraganda, ayollar va qizlarning 35 foizi doimiy ravishda jismoniy yoki jinsiy zo'ravonliklarni boshdan kechiradilar.** Tahlillarga ko'ra, 18 yoshgacha turmushga chiqqan qizlar 750 milliondan ziyodni tashkil etyapti. Odam savdosidan jabrlanganlarning 71 foizi ham ayollardir. Eng yomoni umumiy hisobda dunyoda jami ayollarning 70 foizi o'z oilasida zo'ravonlikdan aziyat chekmoqda. Uzoqqa bormaylikda deyarli unutilayozgan Toshkent hayvonot bog'ida sodir bo'lgan – Zuzu laqabli ayiq va qizaloq voqeasini bir eslaylik. O'shanda kimdir ayolni shafqatsizlik, onalikka loyiq emaslikda aybladi. Boshqa birov esa jigargo'shasini ayiq oldiga tashlagan onaga la'natlar o'qidi. Shukurki, qizaloq Yaratganning mo'jizasi bilan omon qoldi. Keyinchalik ijtimoiy tarmoqlarda yozilishicha, bolasini yovvoyi hayvon changaliga tashlagan ona – Zilola To'laganova Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini tamomlagan, magistrlik darajasiga ega, endigina 30 bahorni qarshi olgan ekan. Turmush zarbalari, aniqrog'i, turmush o'rtog'ining nokasligi sabab ruhi xastalangan va shu ahvolga kelib qolgan. O'z sohasi bo'yicha ikki tashkilotda faoliyat olib borgan. Ayni paytda Zilola ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolanyapti. Agar masalaga chuqurroq yondashsak, bu ayol va hali esini tanir-tanimasdan otasi tomonidan voz kechilgan ikki go'dak taqdiri har birimizni o'ylantirishi kerakligini anglab yetamiz. Axir jamiyatimizda Zilola singari aldangan, umidlari so'ndirilgan, bitta mas'uliyatsiz nodonga ishongan kelinlar, opa-singillarimiz kammi? Tan olaylik, ularning aksariyati taqdiriga tan berib bo'lgan allaqachon... Onalik maqomiga faqat farzand dunyoga keltirish bilan erishilmaydi, albatta. Bu nom, bu baxt, bu maqom halovatdan, chiroydandan, kerak bo'lsa, orzulardan ham voz kechishni talab qiladi. Bir tasavvur qiling, vujudingiz ostida ulg'aytirib, butun boringizni bag'ishlagan jigarporangizga zirapcha kirsangiz, qanchalik tashvishga tushasiz. Uni vahshiy hayvon oldiga tashlash, yoki Buxoroning qaysidir qishlog'ida ro'y bergan norasidani dalada, quyosh tig'ida qoldirish uchun qay darajada aqlsizga, telbaga aylanish

kerak. Lekin nazaringizda, bizning eng katta xatimiz ham boshi berk ko'chaga kirib qolgan telbalikni qoralash va jazolash bilan cheklanayotganimizda. Aslida ayolning qop ko'tarib bozorma-bozor yurishidan or qilmaydigan, boqimandalikka chalingan yo bo'lmasa ayrim xorijga ishga ketib ayoli, bolalarini butunlay unutayotgan arslon kelbatlilar buning asl sababchisi ekanliklarini ko'rmayapmiz. To'g'ri, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ayollarga zo'ravonlikka qarshi hukumatimiz tomonidan zarur dasturlar, qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston 1995-yildayoq «Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi xalqaro konvensiyaga qo'shilgan. 2019-yildan boshlab esa milliy qonunchiligimizga yangilik bo'lib kirgan himoya orderi jamiyatimizdagi zo'ravonliklarni, ayniqsa, oilaviy mojarolar sabab aziyat chekayotgan ayollarni himoya qilish chorasi sifatida qabul qilindi. O'tgan hafta Prezident Administratsiyasi Ijro etuvchi apparatining Kommunikatsiyalar va axborot siyosati bo'yicha sho'ba mudiri Saida Mirziyoyeva ham oiladagi zo'ravonlik uchun jinoyi jazo tayinlanmagunicha, ushbu jinoyatga davlatning munosabati Jinoyat kodeksida aniq aks etmagunicha, bir joyda qotib turaveramiz, busiz boshqa hech nima yordam berolmasligini, yuzaki choralar ham, eng ilg'or gender loyihalari ham, quruq gap bilan tarbiyalashga urinishlar ham yordam bermasligini ta'kidladi. Chindan ham ayollar zo'ravonligiga qarshi aniq qonun, hech bo'lmaganda zo'ravon, mas'uliyatsiz oila boshliqlari uchun belgilanadigan jazo normalari ishlab chiqilmas ekan, bu mavzuga qayta va qayta murojaat qilaveramiz. Va, kunda-kunora TVda, gazeta-jurnallar va ijtimoiy tarmoqlarda yoqilgan, chopilgan, osilgan, eng yomoni, o'z farzandidan voz kechayotgan onalarning ruhan toliqqan chehralarni ko'raveramiz...



Mahbuba  
KARIMOVA,  
jurnalist



# UQUVSIZ FARMATSEVTIKA

## TIZIMI QURBONLIK QILISHDA DAVOM ETMOQDA

**Ehtimol yana bu mavzuga qaytilayotgani kimlargadir yoqmas. Ammo tibbiy savodsizlik, oddiygina loqaydlik oqibatimi yoxud jinoyat tufaylimi hali beg'ubor ko'zlari dunyo taftiga to'yimgan norasidalar qurbon bo'lganlari achchiq haqiqat.**

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, dunyoning o'nga yaqin mamlakatida 300 dan ortiq bolalar aynan Hindistonda ishlab chiqarilgan siroplar tufayli hayotdan ko'z yumgan. Masalan, Indoneziyada 200 ga yaqin bola ushbu sirop iste'moli ortidan vafot etgan. Unga ko'ra, parasetamol asosidagi sirop tarkibida aniqlangan ikkita xavfli modda – etilen glikol va dietilen glikol zaharlanishga sabab bo'lgan. Gambiyada ham ushbu holat qayd etilgan. Qozog'istonning Olmaota shahrida esa 18 kishi «Seftriaksion» antibiotik inyeksiyasini qabul qilganidan keyin sog'lig'i yomonlashgan, ammo buni Qozog'iston hukumati rasman tan olmagan. O'zbekistonda ham avval Samarqandda o'n sakkiz nafar bolaning nobud bo'lgani,

keyinroq Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatida bir necha go'daklarning aynan shu sirop kasriga qolgan qayd etildi. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: ushbu sirop yurtimizga qanday yo'llar orqali kirib keldi? Ma'lumki, xorijdan keltirilayotgan har qanday mahsulot belgisiga ruxsat beruvchi o'nlab tashkilotlarimiz bor. Ishonchimiz komilki, bolalar o'limi bilan bog'liq holatlar aybdorlari, albatta topiladi. Ammo bir narsa ayonki, aybdorlar eng oliy jazoga mahkum etilsalarda go'daklarni qaytarib bo'lmaydi. Biroq bunday jinoyatlar qayta takrorlanmasligi uchun ham jinoyatchilarni topish shart. Shuningdek, aynan Dok-1 maks aybdorlari ustidan olib boriladigan jarayonlardan omma xabardor bo'lishiga

erishish lozim. Yuqoridagi holatlarni tahlil qilayotganlarning fikricha, ba'zi bir dori vositalarini og'zidan bol tomib reklama qilayotgan ayrim telekanallarning ham bu borada ayblari yo'q emas. Yana bir afsuslanarli holat, bu ba'zi bir ota-onalarning bolasi biroz og'rib qolsa, darrov televizorda maqtalgan dori vositasi bilan farzandini davolashga tushib ketayotganidir. Zero, inson qabul qilayotgan har qanday dori vositasi u xoh shifokor tavsiyasi bilan berilsin, xoh aksincha, uning o'z vazifasi bor, albatta. Masalan, hap dorilarni iste'mol qilishdan oldin qo'llanmasi bilan jiddiy tanishish lozim bo'ladi. Ammo tan olaylik, yo'riqnomalar hamma vaqt ham o'qilavermaydi. Hayotda «Umrmda biror marta dori ichmadim, shu sabablimikin, yoshim yuzga

qarab ketyapti, O'ziga shukur» deguvchilarni ham ko'pini ko'ryapmiz. Balki dorilar iste'moli masalasida ularning fikriga quloq solish kerakdir. Bugun dorixonalarimizda sotilayotgan dori vositalari insonlar salomatligi uchun qanchalik ahamiyat kasb etyapti? Xullas tibbiy savodxonligimizning pastligi ham bugun kimlargadir qo'l kelayotgan ko'rinadi. Dok 1 maks bilan bog'liq voqealar hali-beri yakun topmasligi aniq. Lekin nima bo'lganda ham bu voqeadan barchamiz birdek xulosa chiqarishimiz kerak. Ayniqsa, tibbiyot xodimlari. Demak, mas'ullar ta'biri bilan aytganda aybdorlar qidirilmoqda.

**Nafisa RUSTAMOVA,**  
muxbir

Diqqat

Kuting!

**JSST HUKUMATLARGA YADROVIY URUSH UCHUN DORI-DARMONLAR ZAXIRALASHNI TAVSIYA QILDI**

@BIRINCHI\_UZ sayti xabariga ko'ra, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti «radiologik yoki yadroviy favqulodda vaziyatlar» uchun zaxiralanadigan dori-darmonlar ro'yxatini yangilagan. Bular radiatsiya ta'sirini oldini oluvchi yoki radiatsiyani kamaytiradigan, shuningdek, radiatsiya ta'sirini davolash uchun ishlatiladigan dorilardir!



YUQORIDA KELITIRILGAN MUAMMOLAR BU ESKI ILLATLARNING BUGUNGI ASORATI. AFSUSKI, BA'ZI ODAMLARNI UYG'OTISH QIYIN KECHMOQDA. BIZ BOSHIMIZDAN KECHIRAYOTGAN HOZIRGI DAVR – YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA, «UCHINCHI RENESSANS» POYDEVORINI YARATISHDA FAQAT YOSHLARGA UMID BOG'LASH MUMKINLIGINI TO'LIQ HIS ETISHIMIZ LOZIM.



Ma'lumki, Toshkent metropoliteni SSSRdan meros emas, balki davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov va bir necha o'zbek olimlarining sa'y-harakati bilan bunyod etilgan bo'lib, dastlab, uning ikki liniyasi ishga tushirilgan edi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan esa bugungi metropolitenda bir necha yo'nalishlar bo'yicha yo'lovchilar uzog'i yaqin bo'lyapti.



## QACHON YANGI MEZONLARGA NAVBAT KELADI?

### yoxud «sovet mafkurasi qurboni»ni qayta tiklash kerakligi haqida

shuningdek, besh dostonan olingan baytlar asosida ishlangan rasmlarning o'rnatilishiga yo'l bermagan. Aniqrog'i, ushbu doston diniy asar deb chetga surib qo'yilgan. Bu xususida Chingiz Ahmarov ham kuyunib, «sovet mafkurasi»ga yot asar deb uning ustida ishlashga ruxsat berilmaganini aytgan. Bugungi kundagi yangicha qarash va talablar esa bu masalani adolatli hal etishga imkoniyat beryapti. Buni amalga oshirish uchun yetarli kuch va qobiliyatli rassomlarimiz ham bor. Demak, Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoniga keramika, shuningdek, bir necha surat va matnli naqshlardan iborat muhtasham adabiy polotnoni mukammal tarzda qayta yaratish vaqti yetdi. Agar ana shu xato tuzatilsa, xalqimizning Navoiy dahosiga, adabiy merosiga bo'lgan hurmati ifodasini butun turkiy xalqlarga ifodalagan bo'lamiz, nazarimda. Ushbu vazifani shubhasizki, Chingiz Ahmarov maktabi vakillari va navoiyshunos olimlar bajara oladilar. Shuni ham aytishim kerakki, ushbu ma'naviy-ma'rifiy ishning amalga oshirilishi zarurati borasidagi taklif faqat mening

emas, tarix fanlari doktori Abdumajid Madraimov, O'zbekiston xalq rassomi Rustam Xudoyberganov, marhum akademik Aziz Qayumov, professorlar Ibrohim Haqqulov, Jabbor Eshonqulov hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Saidov va boshqa qator ziyolilarning ham bu borada kuyunchaklik bilan yozgan taklif-mulohazalari va nomalarida aks etgan. Ushbu fikrlarni qog'ozga tushirayotganimda tasodifmi yoki taqdirmi bilmadim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, Kamoliddin Behzod nomli milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti Rahim Rizamuhamedov o'zi ishlagan bir tasvirni ko'rsatib qoldi. Muhimi, tasvirning hazrat Navoiyning dunyoqarashi, tafakkuri va «Hayrat ul-abror»ning mohiyatiga asosan qurilgani e'tiborimni tortdi. Kezi kelganda aytib o'tsam, Chingiz Ahmarovning: «Devorga bir gurning rasmini chizing, vaqti kelib uni kimdir davom ettiradi», – degan gaplari metro qurilishining tadjrijiy davomi va metro bekatlarining ichki bezaklariga ham taalluqli desam xato bo'lmaydi. O'ylaymizki, bu tashabbus

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorining ijrosi bilan ham hamohang bo'lardi. Bu ayni paytda qarorning 17-bandidagi O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Respublika hunarmand uyushmasiga yuklangan vazifalarga to'la mos keladi. Darvoqe, metroning boshqa bekatlarida (xususan, G'afur G'ulom bekatida) ham sobiq ittifoqning ramzlari muhrlangan. Bunga ham bir e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, degan fikrdaman. Zero, Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarash, yangicha yashash va yangicha faoliyatni ham talab etyapti.



Rahimboy JUMANIYOZOV,  
filologiya fanlari nomzodi,  
professor

Qayd etish joizki, metroda har bir bekat o'z nomiga mos tarzda bezatilgan. Masalan, Alisher Navoiy bekatni O'zbekiston xalq rassomi, professor Chingiz Ahmarov muzayyanasi o'sha davr va mutafakkir ijodini xarakterlaydigan naqsh, bezak va illyustratsiyalar bilan boyitilgan. Shuni e'tirof etish kerakki, bekat ulug' mutafakkirning «Xamsa»si, «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» va «Saddi Iskandariy» dostonlari mazmuni aks etgan badiiy-ilmii, ma'rifiy-falsafiy obida bo'lib, ular birgalikda yaxlitlik kasb etadi. Mabodo «Xamsa» tarkibidagi biror doston tushirib qoldirilsa,

asarning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-estetik va hatto diniy-tasavvufiy xususiyatlariga jiddiy ta'sir etar edi. Ayni paytda Alisher Navoiy metro bekatida ana shu nuqson yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ya'ni, muzayyanalar orasida «Hayrat ul-abror» dostoniga tegishli keramika, shuningdek, boshqa bir necha surat va matnli naqshlar yo'q. Andishasizlikka yo'yamasangiz, bu nuqsonni bosh barmog'i yo'q qo'lga o'xshatdim. Ilk doston aslida, Navoiyning ruhiy olami, tafakkur dunyosining mag'zi edi. Boshqa dostonlar aynan ana shu asar ohangiga qarab yo'g'rilganini unutmaslik lozim. Lekin sobiq sovet mafkurasi «Hayrat ul-abror» asari,

Jarayon

## Joriy yilda 7 ta elektr stansiyasi ishga tushiriladi

Energetika vazirligi axborot tizimiga ma'lum qilishicha, joriy yil yakuniga qadar yurtimizda umumiy quvvati 2910,6 MVt bo'lgan 7 ta elektr stansiyasi (1 ta IES, 1 ta shamol, 3 ta quyosh va 2 ta GES) ishga tushirilishi (yagona elektr tarmog'iga ulanishi) rejalashtirilgan. Xususan, Sirdaryo viloyatining Shirin shahri va Boyovut tumanlari hududida quvvati 1500 MVt bo'lgan zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi; Navoiy viloyatining Tomdi tumanida

quvvati 500 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasi; Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida quvvati 457 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi; Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanida quvvati 220 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi; Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida quvvati 220 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ahamiyatlisi, ushbu elektr stansiyalar xorijiy kompaniyalar

tomonidan 100 foiz to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobiga amalga oshirilmoqda. Samarqand viloyatida umumiy quvvati 13,6 MVt bo'lgan 2 ta gidroelektr stansiya ishga tushiriladi. Shuningdek, To'palang GES modernizatsiya qilinadi va uning quvvati amaldagi 30 MVtdan 175 (+145) MVtga oshiriladi. Ma'lumot o'rinda, 2022-yilda ham umumiy quvvati 1 474 MVt bo'lgan 7 ta yangi elektr stansiya ishga tushirilgan edi.



O'ZA


EY, JONIM VATAN

Tuproq,  
Kipriyingga g'uborlar qo'nib,  
Sho'xlik qilib yurur hamon sabolar.  
Sening quchog'ingda tug'ilib, unib,  
Ertakka aylandi momo, bobolar.

Muqaddas ruhiyat,  
Har garding – kitob,  
Varaq-varaq qo'lda o'pib o'qirlar.  
Poyiga kim seni toptasa shu tob,  
Bilginki,  
Bu faqat nonko'r, so'qirlar!

Tuproq,  
Onajonim,  
Otamsan boqsam,  
Daraxt-u tog' bo'lib adl turgandek.  
Hidlaring mast etgan ayni  
subhidam,  
Bulbulday bog'larda sayrab  
yurgandek.

Burro zabonimning tafti so'nmagay,  
Bu hayot oftobi toki bor ekan.  
Sening diydoringdan umr  
to'ymagay,  
Bisotim, borlig'im –  
Ey, jonim Vatan!



KO'NGIL HAQIDA O'Y

Isimim O'tkir mening...  
Oltmish uch yilki...  
Ko'nglim na osmon-u,  
Na-da koshona...  
Unga kelganlar-ki,  
Bari nafsona –  
Holing nadir demas,  
Degay ber yana...

Nima beray axir,  
Nimam bor mening...  
Yarador dilimda ming bitta alam.  
Betoqat yuragim – akasi mungning,  
Qo'rqitar tez chopib –  
Demas, nima g'am...

Nima beray axir,  
Berib bo'ldim-ku,  
Mehrn, mehnatni, barcha e'zozni.  
O'zimga kelganda  
To'lib tuldim-ku...  
Topolmay qoldim-ku dildosh,  
Hamrozni...

Axir og'a-inim, bolam, do'stlarim,  
Uzoq-yaqinlarim va shogirdlarim  
Imkoni boricha – bu gavharlarni –  
Qizg'onmay tarqatdim – qolmadi  
Qarzim...

Ammo arzim bordir  
Yolg'iz xudoga...  
O'sha tuyg'ularim maysasi o'ssin.  
Otam suyangan  
O'sha aso ham  
Ulkan daraxt bo'lib  
Yashnasin, kulsin.

Va o'sha daraxtda  
O'tkir Rahmatki,  
Onamning ovozin eshita olsam:  
"Tushaqol dilporam,  
Qatlama pishdi...  
O'zingning qadringga  
Yeta qol bolam..."

Isimim O'tkir  
Mening,  
Oltmish uch yilki,  
Ko'ngil osmonida  
Chaqnar tuyg'ular,  
Ular na-da gullar,  
Na-da ohular,  
Na-da achchiq qayg'u,  
Na-da kulgular...

Eslasam sevgimning  
Anor yuzlari,

Menga qarab turgan  
Shahlo ko'zlari,  
Labimda titragan  
Xushta'm so'zlari,  
Bag'rimda gulduros  
Soladi birdan.

Yasharmog' istayman  
Yana qaytadan,  
Qaytgim kelar mening  
Ulkan daraxtga.  
Otam panohiga,  
Onam mehriga.  
Sevgimning ko'zidan  
Taralgan baxtga!..

Qaytgim kelar mening  
Koshki yana bir...  
Yana bir...  
Yana bir marta...

KO'NGIL

Ustozga

Dargohingning eshiklaridan  
Kecha-kunduz uzilmas qadam.  
Shodlik o'tsa qaysi birdan,  
Kirib kelar qay birdan g'am.  
Qarashlaring hammaga tengdir,  
Hammasini birday suvasan.  
Osmondayin fe'ling ham kengdir,  
Jilmayasan, kulib qo'lasan.  
Bu dunyoning tilsimi behad,  
Ko'z boylag'ich kabi o'yini.  
Tutmish hamma farishtaday qa'd,  
Chalar insof, imon kuyini.  
Quvlik – tulki chap berar ko'zga,  
Ishonch hurkib turadi hayron.  
Sehrlanib sehrlil so'zga  
Dilda borin ochishig ayon!  
Jilmayasan, senga baribir,  
Maqtov yana malhamdek yoqar.  
Bilmaysan kim gul-chechak axir,  
Ilon bo'lib kim zimdan boqar.  
Sochiladi qalbning sirlari,  
Eshiklarin bir-bir ocharlar.  
Gullar ekib qaysi birlari,  
Qay birlari og'u socharlar.  
Umr o'tar ogqanday daryo,  
Sevinch-g'amni ko'tarib boshga.  
Hamon bejarq yashaysan, ammo  
Sho'r peshonang tegsa ham toshga!  
Qalbing torin tinglab unini,  
Sho'x jilmayding shunda ham mayin.  
Zahar sochgan ko'rar kunini,  
Gul-chechaklar ekkanga qiyin!

MEHR

Tiq etsa u eshik tomon mo'ltiraydi,  
Ko'zlari to'rt sog'inibmi yo'l qaraydi.  
Kimlar kelib, kimlar ketar bu manzildan,  
Topolmadi istaganin hech bir dildan.  
Hammada ham bordir tashvish, bordir g'ami,  
Kelganlarga kerak faqat uning nomi.  
Biri so'rar yog'lirrog' joy, biri yemish,  
Biroviga bepul qo'ysa tillo bir tish.  
Mansab istab bor shudini va'da qilar,  
Turlanishib buqalamun kabi ular.  
Yaltoqlanib yurganlarga to'yning to'ri,  
Vodarig'-e, shulormasmi elning sho'ri.  
Ko'zlari to'rt eshik tomon mo'ltiraydi,  
Kim kelar deb zada dili qaltiraydi.  
Ertay-kech allakimni kutar bedor,  
Yo'llariga sog'inchlari, nigohi zor.  
Xayolida hali zamon quchoq ochib,  
Oqibat-u mehr kelar nurlar sochib.  
Yig'lay-yig'lay islariga to'ymoqchi u,  
Ona ko'ksin topqanday bosh qo'ymoqchi u!

MING BIR LIBOS...

Ming bir libos kiyib to'rt tomon,  
Yastanib yotibdi dala, cho'lida.  
Fasllar bag'rida yashab sog'omon,  
Hayot ketib borar qadim yo'lida.

Ne bo'lar oldinda hali noayon,  
Borliqqa yoyadi oftob borini.  
Zalvorli tog'larga egilib osmon,  
Ko'ksiga bosadi cho'qqi qorini.

Shamollar shashti ham hamon o'zicha,  
Dala-tosh poyiga boshin uradi.  
Kechagi novdalar dunyo ko'ziga,  
Falakka gul-yaproq tutib turadi.

JOZIBA

Qanotlarga aylangan umid,  
Tovushlarda jilmayar hayot.  
Gul zeb berib o'zida bexud,  
Iforiga ko'miladi bot.

Bulutlar ham boshlaydi o'yin,  
To'zg'ib-to'zg'ib sochilib ketar.  
Olehazorlar egmayin bo'yin,  
Oq libosda ochilib ketar.

\*\*\*

Laylaklar-la o'ynadi bahor,  
Bog'-rog'larni shayladi bahor.  
G'am-g'ussani haydadi bahor,  
Ko'nglima pok hislarni ildim,  
Ona yurtga sajdalar qildim.

Toshkentimda balqidi quyosh,  
Buxorodan chorladi dildosh,  
Bahouddin Naqshband yo'ldosh,  
Yo'l boshida saodat ko'rdim,  
Ona yurtga bosh egib turdim.

Hazrat Imom minorasiday,  
Imon topdik metin, rasida.  
Istiqloldir buyuk qasida,  
Zabonimda porladi, bildim,  
Ona yurtga sajdalar qildim.

Bunyodkorim yerdan ko'targan,  
Gulshan aro bulbullar bilan –  
Kuy kuyladim – nomidir Vatan!  
O, naqadar lazzatlar surdim,  
Ona yurtga bosh egib turdim.

Ulug'bekning yulduzlariday,  
Sohibqiron qosh-ko'zlariday,  
Navoiyning xuddi o'ziday,  
Mard, zabardast avlodni ko'rdim,  
Ona yurtga bosh egib turdim.

Ko'ngillari obod odamlar,  
Chaqqoq yanglig' qo'ysa qadamlar,  
Kelajagi buyuk Vatanda  
Darg'amizning umidin bildim,  
Shu umidga sajdalar qildim.

\*\*\*

Tong qo'ynida shalola,  
Oqar dala tog'lardan.  
Ko'z-ko'z qilib lolasin,  
Aytar xushbaxt chog'lardan.

Irmog'chalar tinmaydi,  
Jilvalanar har qadam.  
Gulg'unchalar ko'nmaydi,  
Quvonchlari bir olam.

Vaqt zarbidan yumshagan  
Gilam to'shar tabiat.  
Tiriklik deb yashagan,  
Ter to'kar mehnat – zahmat.

Nelar kechmas bog'imda,  
Sochin yoyar ziyolar.  
Bu olam quchog'ida,  
Uyg'og ming bir dunyolar.

**?** – Ish beruvchi xodimni ogohlantirmasdan ishdan bo'shatishi mumkinmi? Muxlisa Cho'liyeva, Yangiyo'l tumani, hamshira

– Faqat birgina ish beruvchining istak-xohishi bilan ishdan bo'shatish mumkin emas. Bunda qonunchilik bilan mustahkamlangan asoslar bo'lishi zarur. Ish beruvchi o'z tashabbusiga ko'ra xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishi mumkin bo'lgan sabablar Mehnat kodeksining (MK) 100-moddasi 2-qismida aniq-tiniq ko'rsatib qo'yilgan. Mazkur ro'yxat tugal bo'lib, hech bir tashkilotga uning doirasidan chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

**?** – Toshkent metropolitenidan bir kunda qancha yo'lovchi foydalanadi? Shu haqda ma'lumot bersangiz? Shodiyona Yusupova, Toshkent Tibbiyot akademiyasi talabasi

– Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yili Toshkent metropolitenidan bir kunda o'rtacha 374,6 ming nafar yo'lovchi foydalangan. Bu ko'rsatkich 2021-yil bilan solishtirilganda 34,4 foizga ko'p.

**?** – 2023-yildan paxta sug'orish uchun ishlatilgan elektr energiyasi xarajatlarining 50 foizigacha davlat tomonidan qoplab beriladi, deb eshitdim. Bu xabarning huquqiy asosi bormi? Shokir Boboyev, G'uzor tumani, fermer

– Prezidentimizning 2023-yil 26-yanvarda qabul qilingan «Paxta xomashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yana-da qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–23 sonli qaroriga muvofiq, 2023-yildan xorijdan olib kelingan va respublikamizda ishlab chiqarilgan lazerli qurilmalarga ega avtomatlashtirilgan yer tekislagich agregatlarini sotib olgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga ular qiymatining 30 foizi qoplab beriladi. Shuningdek, paxta yetishtiriladigan maydonlarni nasos orqali sug'orishda sarflanadigan elektr energiyasi xarajatlarining 50 foizigacha qismi qoplab beriladi. 2025-yil 1-yanvargacha import qilinadigan ayrim mineral o'g'itlarga esa bojxona bojining «nol» stavkasi qo'llaniladi.

G'.Abdullayev, Fermerlar uyushmasi xodimi

**?** – Televizordan Unabi mevasining qon bosimiga juda foydali ekanini eshitib qoldim. Bu meva haqida to'laroq ma'lumot bersangiz? O'lmas Boboqulova, Zangiota tumani, nafaqaxo'r



– Unabi asosan, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Afg'oniston, Pokiston, AQSH va Rossiyadan keltiriladigan meva bo'lib, xalqona tilda uni Chilonjida deymiz. Ushbu mevaning tarkibi oqsil, tannid, kaliy, magniy, pektin moddalari va S vitamini borligi sabab shamollashga qarshi, immunitet ko'taruvchi, qonni suyultiruvchi, asabni tinchlantiruvchi, yurak qon-tomir kasalliklari, ayniqsa, qon bosimiga qarshi hamda qon tarkibidagi xolesterin moddasini kamaytirish uchun juda foydali ekanligi tabobatda isbotlangan.

**?** – Ortiqcha to'langan ish haqi to'lovlarini qachon qaytariladi, qachon qaytarilmaydi? Shunga tushuntirish bersangiz. Barchinoy Rahmonova, hamshira

– Mehnat kodeksining 279-moddasiga asosan ish beruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda to'langan, shu jumladan, qonunni noto'g'ri qo'llash oqibatida to'langan ortiqcha ish haqi qayta undirib olinishi mumkin emas. Albatta, hisob-kitobda yo'l qo'yilgan xato oqibatidagi ortiqcha to'lovlar bundan mustasno. To'g'ri, agar ish haqi hisob-kitobdagi xato oqibatida, ya'ni noto'g'ri hisoblash natijasida ortiqcha to'langan bo'lsa, bu to'lovlar qaytarilishi kerak. Lekin ish beruvchi ixtiyoriy ravishda to'langan, shu jumladan biror-bir qonunni noto'g'ri qo'llash oqibatida to'langan ortiqcha ish haqi to'lovlarini xodimdan qaytarib olish mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Odinaxon Abduxoliqova, huquqshunos


**?** – Iste'molchilar buzilgan huquqlari bo'yicha sudga da'vo arizasi bilan murojaat etishsa, qancha miqdorda davlat boji to'laydilar? Gulmira Mahmudova, o'qituvchi

– «Davlat boji to'g'risida»gi qonuning 8-moddasiga asosan, iste'molchilar o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishi bilan bog'liq da'volar yuzasidan Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilingan. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi axborot xizmati

**?** – Aytishlaricha, chaqmoq bir joyga ikki marta tushmas ekan. Shu rostmi? Bu borada fan nima deydi? Ruxshona Rustamova, Kasbi tumani, 40-maktab 11-sinf o'quvchisi

– Bu farazlar noto'g'ri. Chunki Yer kurrasida shunday manzillar borki, olimlar bu joylarda har oqshom soatiga minglab chaqmoqlar chaqishini aniqlashgan. Xususan, Venesueladagi Katatumbo daryosi va Marakaybo ko'lining qo'shiladigan yeri Tesla, Eynshteyn va Faradey kabi hududlarda soatiga minglab chaqmoq chaqadi va aynan bir joyga bir necha marta tushadi. Shuningdek, har kecha o'rtacha 9 soat uzluksiz chaqmoq chaqadigan hududlar ham bor. Eng qizig'i, ushbu chaqmoqlar tabiiy elektr manbai sifatida ham ishlatiladi. Tadqiqotlar Kongodagi tog'li Kifuka qishlog'ida har soat km<sup>2</sup> ga 158 marta yashin urishi aniqlangan. Bu joy hatto dunyoning momaqaldiroq poytaxti deb ham ataladi.

Sport



YANGI CHAQIRUV

«Roma» safida harakat qilayotgan legionerimiz Eldor Shomurodov Italiyaning A Seriya klubi «Spetsiya» a'zosiga aylandi. Endi Futbolchi mavsum yakunlangunga qadar «spetsiya»liklar safida ijara shartlari asosida harakat qiladi. Ijara summasi 1,5 million yevro ekani aytilmoqda. Shu o'rinda, «Roma»ning E. Shomurodovni mavsum oxirida yana o'z safiga qaytarib olishini aytish joiz. Qayd etilishicha, Eldorning debyut o'yini 5-fevral kuni «Napoli»ga qarshi uchrashuvda amalga oshadi. O'yin Toshkent vaqti bilan 16:30da boshlanadi.

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING LITIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI: Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abdalaziz AKKULOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATQONOV, Baxtiyor SAYFULLAYEV, Ibrahim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nodir MUXTOBOV, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIVANBOYEV, Omidbek NAZARBEKOV, Ortisipali QOZOQOV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xarshid DO'ST MUHAMMAD, Sherzodona QUDRATXO'JA, Shavkat SHARIPOV, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir: Mirodil ABDURAHMONOV

Tahririyat MANZILI:

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Olin O'SAROV, Maqsd Shaxzoda ko'chasi, 1A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR: Ravshan MAHMUDOVI, Maibbuba KARIMOVA, NASHR UCHUN MAS'UL: Ma'murjon YULDOSHEV, NAVBATCHI: Viloyatxon SHODIYEVA, DIZAYN GURUHI: Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonada manzili: «Buyuk Turo» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta: mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

ISSN 2010-7714



2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 3 700. Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. Qog'oz bichimi: A3. Hajmi: 4 bosma tabaq. Buyurtma: G – 216. Bosishga topshirish vaqti 21.00. Topshirildi: 4:15